

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**«Himoyaga ruxsat etildi»  
Pedagogika fakul'teti dekani,  
dotsent \_\_\_\_\_ K.Boymirzayev  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.**

**5110900- Pedagogika va psixologiya yo'nalishi bitiruvchisi  
Jalilov G'ulomjon Gofurjon og'lining**

**“SHAXS TARAQQIYOTIDA O'ZIGA BO'LGAN ISHONCH VA  
DADILLIKNING AHAMIYATI ” mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**«Himoyaga tavsiya etildi»  
Pedagogika psixologiya kafedrasi  
mudiri**

**\_\_\_\_\_ p.f.n.dotsent M.Nishonov  
«\_\_» \_\_\_\_\_ 2018 y.**

**BMI rahbari:  
D.Oribboyeva**

**o'qituvchi**

**Namangan – 2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	
<b>I-BOB SHAXSNING O'ZIGA ISHONCHI VA DADILLIK XUSUSIYATINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILGANLIGI</b> .....	
1.1. Xorij psixologiyasida muammoning ilmiy tahlili.....	
1.2. Shaxsning o'ziga ishonchi va dadillik muammosining mazmuni	
1.3. Shaxs ijtimoiylashuvida o'ziga ishonch va dadillikni namoyon bo'lishi	
<b>II-BOB. Shaxs taraqqiyotida o'ziga ishonch va dadillik sifatining rivojlanganligini o'rganish tajribasi</b>	
2.1. Shaxs taraqqiyotida o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllantirish omillari	
2.2. O'z o'ziga ishonch va dadillik sifati shakllanishining yoshga xos xususiyatlari	
2.3. Shaxs taraqqiyotida o'z-o'ziga nisbatan ishonch va dadillikning o'zaro aloqadorligini o'rganish tajribasi natijalari taxlili	
<b>XULOSA VA TAVSIYALAR</b> .....	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b> .....	

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Biz mamlakatimizning istiqboli yosh avlod qanday tarbiya topishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'li faol munosabatda bo'lishiga, qanday oliy maqsadlarga hizmat qilishiga bog'lik ekanini hamisha yodda tutishimiz va biz farzandlarimizning barkamol ruhiy dunyosi uchun, ularning ma'naviy -ahloqiy jihatdan yetuk, jismonan sog'lom bo'lishi uchun doimo qayg'urishimiz, kurashmog'imiz zarur.

Mamlakatimizda oila farovonligining, onalik va bolalikning, davlat siyosati darajasida hal qilinayotganligi bu har bir shaxsga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yorqin dalilidir. Chunki, barkamol avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olish masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal qilinayotganligi-bu fikrning yorqin isbotidir.

Yoshlar bizning ertangi kunimiz, shu bois ham har jihatdan barkamol bo'lgan avlod eng avvalo oila muhitida shakllanib boradi. Jamiyatda yoshlarni har tomonlama yetuk rivojlanishiga nafaqat tashqi muhit va omillar to'sqinlik qilmoqda, balki ularning o'z ichki ruhiy hissiyotlarida namoyon bo'layotgan ko'pgina salbiy kechinmalar ham ular oldidagi katta muammo bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, bolalarda mavjud bo'lgan, o'ziga past baho berish, o'ziga ishonmaslik, xavotirlanish, hayajonlanish, dadillikning yetishmasligi va boshqa ko'pgina psixologik omillar, psixologiya sohasida olimlar tomonidan har tomonlama va turlicha usullar bilan o'rganilgan.

Yoshlar bizning kelajagimiz ularni qanday tarbiyalab bersak, yurtimiz kelajagi ham shunday bo'ladi. Bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirish lozim mamlakatimizning mard fidoiy kishilari yurtiga mehr - shavqat, muhabbat, barqaror bo'lgan tafakkur va ijod qaynagan muqaddas makonga aylanishiga aminman" degan fikrlari ta'lim – tarbiya sohasini mamlakatning rivojlanishidagi ustivor yo'nalishlardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Ma'naviy, axloqiy hamda jismoniy jihatdan yetuk bo'lgan avlod haqida so'z yuritilar ekan, shu o'rinda I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinlidir: "Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini farovon hayot asosini qurish demakdir. Biz tarixan qisqa fursat ichida boshqa sohalarda bo'lgani kabi ta'lim-tarbiya borasidagi maqsad va vazifalarimizni yaxshi anglab yetdik. Hammamiz yana bir haqiqatni anglashimiz zarurki, faqat chinakam ma'rifatli insongina millat qadrini, o'zligini anglaydi. CHinakam barkamol shaxsni tarbiyalasha esa, ta'lim-tarbiyaning o'rni beqiyosdir".

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida, bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz aholisining 32 foizini yoki 10 millionini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlarimiz tashkil etadi. Yoshlarimiz haqli ravishda Vatanimizning kelajagi uchun javobgarlikni zimmasiga olishga qodir bo'lgan, bugungi va ertangi kunimizning xal etuvchi kuchiga aylanib borayotgani barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta'lim-tarbiya bo'yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga yetkazishimiz zarur. Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta'lim tizimining eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta'lim berish, ularni jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir. Farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o'rin egallashini ta'minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib

kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".<sup>1</sup> degan edilar.

Ushbu fikrlarni o'qir ekansan ushbu yoshlarimizdagi o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikning yanada shakllanishida muhtaram prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosatning nechog'li to'g'ri ekanligiga yana bir karra amin bo'lmasdan ilojing yo'q. Zero yoshlarimizning irodali, har tomonlama komil, dadil, va botir shaxs bo'lib yetishishlari ularning psixologik xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Bugungi kunda yoshlarimizda dadillikni, o'ziga ishonchni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, dadil, qo'rqmas shaxs o'z fikrlarini erkin bayon eta oladi, dadil shaxs o'z maqsadiga erishishda ongli harakatlarni amalga oshiradi va o'z qo'rquvi ustidan nazorat o'rnata oladi. Yoshlarimizda vatanparvarlik, jonkuyarlik, o'zganing dardiga befarq qaramaslik kabi xususiyatlarni shakllantirish uchun eng avvalo ularda dadillik va faollikni oshirib borish juda muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, shaxs taraqqiyoti o'ziga xos bosqichlarni qamrab oladi. Xususan, ularda shaxs sifatlarining taraqqiyoti o'z navbatida fiziologik jarayonlar bilan uyg'un holda kechishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida turli yosh davrlarida shaxs taraqqiyotida ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ta'kidlab o'tish kerakki, ayrim yosh davrlarida shaxs taraqqiyotida yuz beradigan hissiy-irodaviy jarayonlaridagi o'zgarishlar ularni faoliyatlarini izdan chiqishiga hamda shaxsiga xos sifat va xususiyatlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida bu davrlarda o'z-o'ziga nisbatan ishonch va dadillik sifatining taraqqiyoti qay darajada kechishini o'rganish muammoning dolzarbligini belgilab beradi.

Boladagi ishonch va ishonchsizlik va dadillik bilan bog'liq sifatlar uning qo'l harakati, yurish-turishi, yuz ko'rinishi, o'zini tutishi, muomalasi va irodaviy sifatlarida ko'rinadi. Psixologiyada inson psixikasi uchun juda muhim bo'lgan

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи /Ш.М. Мирзиёев. - Т.: "Ўзбекистон" НМИУ, 2016. -56 б

teskari aloqa mexanizmidan foydalaniladi. Gap shundaki, nafaqat ichki holat xulq-atvor, ovoz, mimika, qo'llar harakati orqali ifodalanadi, balki ular o'z navbatida bizning ichki holatimizga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Vaziyatlarda o'zini xuddi o'ziga ishongan odamlardek tutishga harakat qilib ko'rish lozim. «Insonni kitobday o'qish» asarining mualliflari Dj.Nirenberg va G.Kalero ishonchsizlikni quyidagicha tasvirlaydilar: «biz bu holatni insonlarni umrlarida birinchi marotaba videoga tushishga to'g'ri kelganlarda ko'p marta kuzatganmiz. Insonning o'ziga bo'lgan ishonch va ishonchsizlik belgilarini uning tashqi holatida ham ko'rish mumkin ekan. Xorij olimlari Dj.Nirenberg va G.Kalero odamlardagi o'ziga nisbatan ishonch va ishonchsizlik belgilarini ko'z qarashlari bo'yicha xarakterlash to'g'risida quyidagi qiziqarli ma'lumotlarni keltiradilar: «Ko'pchiligimiz, shubhasizki ko'zimizga tik qaramagan odamlarni biron narsani berkityapti deb o'ylaymiz.

I.Ergel «Shaxslararo munosabatlar psixologiyasi» kitobida hisoblashicha, 30 dan 60% gacha odamlar suhbatlashayotgan vaqtda bir-birlariga qaraydilar. Shuningdek uning ta'kidlashicha, agar ikki suhbatdosh 60% vaqtdan ko'proq bir-biriga qarab gaplashsa, demak, ularni nima gap gapirayotganliklaridan ham ko'ra, suhbatdoshlari ko'proq qiziqtiradi. Suhbatdoshiga qaratilgan to'g'ri, ochiq, mehr bilan yoki tinch qarash va vaqti-vaqti bilan nigohini chetga olib qochish unga bo'lgan samimiylik, ishonch, e'tibordan dalolat beradi. Bezovta, qat'iy va tikilgan nigoh, «ko'zlarning yonishi» - bularning barchasi agressiv xulq-atvorning belgisidir. Suhbatdoshidan chetga qaratilgan nigoh, noqulaylik hissini chaqiruvchi nigohlarning qisqa- qisqa to'qnashuvi, ishonchsizlik yoki aybdorlik hissidan darak beradi.

O'zingizga bo'lgan ishonch va dadillik nafaqat so'zlashishingiz, yurish-turishingiz, qarashingiz, balki qanday tinglay olishingizda ham o'z aksini topadi, bunda o'zini hurmat qilishning yuqori darajasi ham namoyon bo'ladi. Tinglay olishni bilish, insonning aytganlaridan ko'ra ko'proq, uning o'ziga bo'lgan munosabatidan dalolat beradi. Albatta, bu ishonch va ishonchsizlikning biroz

yorqinroq tashqi belgilarining ayrimlaridir. Hayotda ular ancha ko'p va turli tumandir.

Psixologiya fanida ishonch va ishonchsizlik, dadillik kabi muammolarni qator psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, D.Levis va A.Veygert, S.Robinson, M.Yamagiyazi, D.Russo, S.Sitkin, R.Bert, K.Kamerer, G.A.Agureeva, I.A.Antonenko, A.Ya.Kibanov, T.A.Nestik, A.V.Filippov, V.A.Denisov, P.N.Shixirev va boshqalar ishonch masalasida ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lsalar, Daniel Putman, Christopher R.Rate, S.J.Rachmman, Cooper R. Wood, Lion Whisker, rus psixologlaridan Albert Aleksandrovich Krilov, S.L.Rubinshteyn, P.A.Rudiklar tomonidan dadillik masalasi chuqur o'rganilgan.

**Bitiruv ishining maqsadi:** shaxsda o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik omillarni o'rganish.

**Bitiruv ishining predmeti:** shaxs ruxiyatida o'ziga nisbatan ishonchni va dadillikning rivojlanganlik xususiyatlari

**Tadqiqot ob'ekti:** kasb-xunar kollejining maktabgacha ta'lim yo'nalishdagi birinchi va ikkinchi bosqich o'quvchilari

**Bitiruv ishining vazifalari:**

1. Shaxsda o'ziga bo'lgan ishonch va dadillik sifatining shakllanishi muammosining nazariy tahlili.

2. Shaxsda o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish.

3. Shaxsda o'z-o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarini o'rganish.

4. Natijalarni tahlil qilish va psixologik-pedagogik xulosa, tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishi:** kirish, 2 bob, 6 paragraf, xulosalar va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar, ilovalar kabi qismlardan tashkil topgan.

# **I-BOB SHAXSNING O'ZIGA ISHONCHI VA DADILLIK XUSUSIYATINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA O'RGANILGANLIGI**

## **1.1.Xorij psixologiyasida muammoning ilmiy tahlili**

Jahonning yirik olimlari, soha mualliflarining asosiy falsafiy tadqiqotlariga, ilmiy yo'nalishiga, ijtimoiy nuqtai nazari va siyosiy e'tiqodiga qarab ular ishonch mohiyatini tushunib yetishga turlicha yondashuvlarni taklif etadilar. D.Levis va A.Veygert ishonchni "biror bir voqeaga jalb etilgan barcha shaxslar asosli va o'z burchini anglagan holda harakat qiladilar degan holatni dadillik bilan kutishga asoslangan mutlaqo tavakkalli harakat" deb qarashgan.

Shunga o'xshash ravishda ishonchni S.Robinson ham tavsiflagan: "ishonch - bu boshqa shaxsning kelajakdagi harakatlari manfaatli, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan va hech bo'lmaganda boshqa shaxslarning manfaatlariga shikast yetkazmasligi ehtimolini kutish, taxmin qilish yoki unga e'tikod (imon) qilishdir". Dj.Rempel, Dj.Xolms va M.Zanna oldindan shunday bo'lishini kutish, ishonish va kuyinchak bo'lish, boshqa insonning farovonligi to'g'risida qayg'urishning o'ziga xos ahamiyatini ko'rsatib o'tadilar. P.Ring va A.Van de Ven ishonchni boshqa shaxsning orzu-tilaklari va xayrixohligini tasdiqlashga e'tiqod qilish deb bilgan.

O'z navbatida P.Bromili va L.Kamings ishonchni birorta individ yoki guruh har qanday majburiyatlarga: ham ochiq-oydin, ham nazarda tutiladigan majburiyatlarga mos ravishda o'zini tutishga harakat qilishini, ana shu vaziyatlardan oldin keluvchi har qanday so'zlashishlarda o'zini halol tutishini, agar shunday imkoniyat tug'ilgan taqdirda ham bironi haddan tashqari aldamasligini kutib qolish deb tavsiflagan. T.Yamagiyazi va M.Yamagiyazi ishonchni odamlar boshqalarning ezgu irodasini ekspluatatsiya qilmasliklariga qat'iy imon keltirish deb ko'rsatadilar. Biznes sohasidagi ishonch to'g'risidagi munozaralarning ba'zi bir natijalari "The Academy of Management Review" jurnalining mavzuli nashrida keltiriladi. Kirish maqolasida D.Russo, S.Sitkin, R.Bert va K.Kamerer quyidagi tavsifni taklif etadilar: ishonch bu shunday ruhiy holatki, u o'zining



zaifligini tan olishni o'z ichiga oladi va boshqaning niyatlari hamda hatti-harakati borasidagi ijobiy umidlarga asoslanadi.

Boshqa muhim tavsiflarda ishonch boshqa odamlar va ijtimoiy tizimlardan yanada umumiyroq munosabatni yoki umid sifatida karaladi (B.Barber, X.Garfinkel, N.Lumann). Masalan, B.Barber ishonchni “boshqa odamlar, tashkilotlar, muassasalar va hayotning fundamental mazmunini tashkil etuvchi turmush tabiiy, ahloqiy va ijtimoiy tartiblarga nisbatan ijtimoiy asoslangan va ijtimoiy tasdiqlangan umidlarning” majmuasi sifatida tavsiflaydi. SHunday qilib, ishonchning asosini tashkil etuvchi alomatlar sifatida emotsional yaqinlik, ijtimoiy bir xillik, almashuv, shartnoma, ijtimoiy saxovatlar va hokazolar qaraladi. Haqiqatdan ham, turli madaniyatlarda ishonch roliga asoslangan taxminlar, ahloqiy saxovatlar, shartnomaviy majburiyatlarga suyaladi.

Shuningdek, shunday nuqtai nazar mavjudki, unga ko'ra ishonch “o'z-o'zidan paydo bo'ladigan ijtimoiylik” (spontaneous) sifatida namoyon bo'ladi. F.Fukuyama buni individning “yangi birlashmalar va o'zaro hamkorlikning yangi chegaralarini yaratish” qobiliyati deb tushunadi. Ruhshunoslik nuqtai nazaridan bu qobiliyat ortida ehtiyojlar va mansub bo'lishlar, qabul qilishlar, hurmat qilishlar va tan olishlar, birlashishlar, boshqalar to'g'risida g'amxo'rlik qilishlar va hokazolarga asoslanadigan o'zaro hamkorlik qilish, birlashish va yaqin bo'lishga asosiy ijtimoiy ehtiyoj turadi. Bunday tushunishdan kelib chiqqan holda, insonning o'z atrofidagi odamlar va dunyoga ishonishga bo'lgan maxsus ehtiyojning mavjudligi to'g'risida gapirish mumkin.

Ishonchning paydo bo'lish tabiati, asoslari, mezonlari va funktsiyalari to'g'risidagi tasavvurlarga shuningdek, insoniyat tarixidagi ularning ko'pchiligini tashkil etuvchi turlari va shakllarining evolyutsiyasi ham ta'sir qiladi. “An'anaviy jamiyatlar” deb atalmish jamiyatlar uchun xarakterli bo'lgan ishonchning tarixiy jihatdan eng qadimiy shakli deb tadqiqotchilar ob'ektning alohida ruhiy maqomga ega bo'lgan ijtimoiy guruhga tegishli bo'lishiga asoslangan ishonch hisoblanadi. An'anaviy jamiyatlarda bu odatda qonli qarindoshlik aloqalari hisoblanadi. O'z “guruhiga” tegishli bo'lish uning a'zolarini ishonchning eng oliy krediti bilan

ta'minlaydi va bu hol hazil, masxara qilish, ruxsatsiz bironing narsalarini o'zlashtirish - ya'ni boshqa odamdan jinoyat qilish yoki haqoratlash sifatida kabul qilinadigan barcha narsalar ko'rinishidagi birgalikda yashash me'yorlarining buzilishiga yo'l qo'yadi. A.Seligmen ta'kidlaganidek "bu aslo e'tiqod emas, balki rolli munosabatlarning tabiatiga ko'ra yaxshi taqdim etilgan (ruxsat etilgan), akriptiv bo'lgan rolli munosabatlarning mavjudligiga ishonchdir".

Bizning vaziyatda ishonch birgalikda yashash faoliyatini tartibga solishda tobe bo'lgan funktsiyani bajaradi - ular mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzilmani saqlab qoladilar va qayta ishlab chiqaradilar. Ishonchning bunday roli yangi ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning yangi tizimlari o'zaro harakat qilish davomida ishtirokchilarning bir-biriga nisbatan ishonchlilik yoki ishonchsizlik asosida shakllanadigan bir sharoitda ishonchning zamonaviy jamiyatdagi rolidan sezilarli darajada farq qiladi. An'anaviy jamiyatlarda "barcha" narsaga yuksak darajadagi ishonch boshqa guruh vakiliga va ayniqsa "begona"ga nisbatan ishonchsizlik bilan almashib keladi (G.Zimmel').

A.Seligmen fikricha, so'nggi ikki asr davomida ijtimoiy fikr va siyosiy nazariyaning diqqat markazida faqatgina o'zaro va'dalarni bajarishga asoslangan odamlar ittifoqini qo'llab-quvvatlash g'oyasi bo'lgan. Ularning paydo bo'lishini A.Seligmen, E.Dyurkgeymning shartnomaviy asoslar g'oyasi bilan bog'laydi (ya'ni bozorlarni tartibga soladigan va shartnomalarning ijrosini boshqaradigan qoidalarning zaruriyligi). Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi begona ijtimoiy guruhlarni ifoda etgan odamlar bilan o'zaro hamkorlik qilishi chastotasini va jadalligini kuchaytirgan. Bundan tashqari bunday o'zaro hamkorlik borgan sari shaxsga mustaqilligini yo'qotadigan bo'lib koldi. Yu.V.Veselov ta'kidlaganidek, mos ravishda ishonchning "an'anaviy" shakldan aralash shakldagi ishonchga va undan keyin - "ratsional" va "zamonaviy" transformatsiyasi ro'y berdi. Xo'jalik yuritishning bozor shakliga asoslangan jamiyatlar ijtimoiy va iqtisodiy kommunikatsiyalar agentlarining shaxssiz munosabatlarini tartibga soladigan ahloqiy munosabatlar va ishonchning yangi turini ishlab chiqardilar. Munosabatlarning bu turi an'anaviy jamiyatlardagi madaniy-determinallashgan

ishonchdan farq qilib, boshqalarning hatti-harakatlarini ratsional qabul qilishga asoslangan.

Zamonaviy sharoitda ishonch tabiatining o'zi o'zgarmoqda. Ishonch munosabatlari birinchidan, funktsional, ikkinchidan - ratsional, uchinchidan - abstrakt (personifikatsiya kilinmagan) (buni A.Giddens "ekspertli tizimlarga ishonch deb atagan") bo'lib qoladi. tadqiqotchilar fikricha, hozirgi paytda ijtimoiy almashuv g'oyasi ishonchni eksperimental o'rganishdagi yetakchi ijtimoiy an'anani ifoda etadi. Masalan, L.Mum va K.Kuk dastlabdan kelishishga asoslangan almashuvni va unga qarama-qarshi bo'lgan o'z-o'zidan birdaniga o'zaro almashuvni ajratib ko'rsatishadi. Agar kelishish oldindan amalga oshirilmagan bo'lsa, tovarlar va xizmatlarni taqdim etish amalga oshishi va uning oqibatida qarzdor qarzidan qutulishi ro'y berishi mumkinligiga ishongan holda amalga oshiriladi. P.Molm, N. Takashi va G.Peterson ushbu holatda ishonch shartlashib olinganlik asosida almashuv jarayoniga nisbatan yanada yukori darajaga yetadi. "Ratsional ishonch" (o'zaro va'dalarning o'zaro bajarilishi, ya'ni almashuvga asoslangan) modelining ommabopligiga va bu modelning iqtisodiy jihatdan harakatlarining tejamkor bo'lishini ta'minlashga karamasdan, shuni ta'kidlash lozimki, hisob-kitob qilishdan ko'ra, ishonchning bu turi asosiy alomati bo'lib shartsizlik hisoblanadigan haqiqiy ishonch bilan umumiy jihatlari ko'p bo'ladi. A.Seligmen fikricha, bu karama-qarshilikni yengib o'tishga zamonaviy davrda ishonchning "generallashtirilgan almashuv" kontseptsiyasi imkon beradi. Generallashtirilgan almashuv sub'ekt shu zahoti mukofot olishga da'vo qilmasdan hamjamiyat qoidalariga amal qilishi va jamiyatning boshqa a'zolari o'zini xuddi shunday tutishiga umid qiladi va natijada bularning hammasi butun jamiyatning va sub'ektning o'zining hayot faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Biroq, bizningcha, ishonchni shartnomaning yoki har qanday almashuvning shakli (personifikatsiya qilingan va personifikatsiya qilinmagan, ekvivalent yoki ekvivalent bo'lmagan) sifatida tushunish bizni ishonchning haqiqiy mohiyatini (yoki haqiqiy ishonchning mohiyatini) tushunib yetishdan uzoqlashtiradi.

Barcha tadqiqotchilar zamonaviy jamiyatda ma'naviy yakinlik bo'lmagan yoki maqsadlar va qadriyatlarning birligi mavjud bo'lmagan o'zaro aloqa turi borgan sayin jadal va tez-tez uchramoqda degan fikrga kelishmoqda. Ko'p hollarda o'zaro aloqa depersonifikatsiyalangan xarakterga ega bo'ladi. Sheriklar tez-tez birini yetarlicha yaxshiroq bilib olish imkoniyatidan va ishonchli kelishuvni tuzishdan mahrum bo'ladi. Shu tarzda, o'zaro aloqa noaniqlik va shunga mos ravishda ne'matga ega bo'lishning biror bir kafolati bo'lmagan sharoitlarda kechadi. Birok, shunga qaramasdan, odamlar bir-biriga ishonishda va hamkorlik qilishda davom etishmoqda. Xo'sh, bu holda oqilona ishonchning o'rnini ishonchning qaysi turi bosa olishi mumkin? Bu savol bizni odamlar jamoasi va hamkorligini tushuntiruvchi izohlarga, ba'zi bir bazaviy ijtimoiy ehtiyojlarning (ijtimoiy instinktlar, E.Dyurkgeym bo'yicha "organik birdamlik", F.Fukuyama bo'yicha "spontan ijtimoiylashuvga moyillik") mavjudligiga qaytaradi. Hqiqatan ham qandaydir bir bazaviy ijtimoiy ehtiyoj, aniqrog'i insonning qolgan ijtimoiy ehtiyojlarning barchasi shakllanadigan hamjamiyatda yashashga bo'lgan ehtiyoji. hamkorlikka, umumiylikka, mansublikka, hurmatga va hokazolarga ehtiyoji mavjud. E.Dyurkgeym organik birdamlik asosini barcha odamlar uchun yagona bo'lgan axloqiy qadriyatlarda, ya'ni "insonning umumiy kontseptsiyasi"ga mos keluvchi qadriyatlarda ko'radi, "chunki har birimizda insoniylik zarrasi bor, har bir individning vijdoni qandaydir bir ilohiylikka ega, shunday ekan, u boshqalar oldida sof va mustahkam bo'lishi kerak". Biroq turli ziddiyatlar yoki hatto dunyoqarashlar, maqsadlar va manfaatlar nizosi bilan birga kechishi mumkin bo'lgan yuqori darajadagi noaniqlik holatida "organik birdamlik" o'zaro aloqaning xavfsizligiga yetarli darajada kafil bo'lishi hamda xavf-xatarlarni kamaytirishi mumkin emas. SHuning uchun sheriklar orasidagi munosabatlarda bir paytning o'zida ishonch va ishonchsizlikning bo'lishi - ishonch va ishonchsizlik optimal darajalarining muvozanati tendentsiyasi jamiyatdagi ishonchning hozirgi holatining yana bir o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Turli tarixiy davrlarda va odamlarning turli hamjamiyatlarida ishonchning ba'zi bir turg'un xarakteristikalarini mavjudligi ishonch madaniyati haqida gapirish

imkonini beradi. Ishonch madaniyati - bu nafaqat o'zaro ijtimoiy aloqaning tarixan shakllangan yo'nalishlari, me'yorlari va qadriyatlari, balki ijtimoiy amaliyotlarda faol ravishda aks etadigan ongli tarzda rejalashtirilishi va boshqarilishi mumkin bo'lgan munosabatlarning tuzilmasi hamdir. Turli madaniyatlar ishonchning ahamiyati, uning shakllanish mezonlari, namoyon bo'lishining darajasi, asosiy tarkibiy qismlari (asoslari), ishonchga asoslangan munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalar va an'analar bilan farq qiladi. F.Fukuyama milliy ishonch madaniyatlarini ko'rib chiqar ekan, zamonaviy davlatlarni, ulardagi jamiyatlarda ishonch qanday rol o'ynashiga qarab. uchta guruhga ajratadi. Birinchi guruhni ijtimoiy birlashuv va ishonch darajasi eng yuqori bo'lgan AQSH, Yaponiya va Germaniya tashkil etadi. F.Fukuyama bu mamlakatlardagi iqtisodiyotning yuqori darajada rivojlanishini ularning iqtisodiy hayotida ishonch o'ynaydigan rol bilan bog'laydi. Ikkinchi guruhga ishonch darajasi ancha pastroq bo'lgan Xitoy, Italiya va Frantsiya kirgan. Ushbu mamlakatlarda ishonch oilaviy tuzilmalar (yoki shunga o'xshash narsalar) bilan ushlab turiladi. Ishonch darajasi eng pastligi bilan xarakterlanuvchi uchinchi guruh sobiq sotsialistik mamlakatlarni birlashtirgan. SHartlilik va umumiylikning yuqori darajasiga qaramasdan, ayni paytda ushbu model eng keng tarqalgan modellardan biri hisoblanadi. Uni tanqid qiluvchilarning qayd etishicha, madaniyati jihatdan turli bo'lgan mamlakatlarni (Yaponiya va Germaniya, Xitoy va Frantsiya) bir guruhga birlashtirish mumkin emas. Xitoy va Yaponiya ishonchni Konfutsiy o'g'itlari doirasida (masalan, kattalarga hurmat va ishonch) tushunishi ravshan. AQSH va Frantsiya, Angliya va Italiya, avvalambor, xristian davlatlari sifatida (ular protestantlar va katoliklarga ajrala ham), umumiy ma'naviyatda va inson hayoti qadriyatlarini, fuqarolik jamiyatini, tarakkiyotni tan olishda yakdil bo'lishadi.

Rossiyada ba'zi bir tadqiqotchilar aynan g'arb dunyosi mamlakatlarida, ayniqsa AQSHda, an'anaviy ishonch madaniyatining tanazzulga yuz tutayotgani va inqirozga uchrayotganini kuzatish mumkinligini, SHarqiy Yevropa mamlakatlari esa faol tarzda shakllanayotgan ishonch madaniyatiga namuna bo'la olishini ta'kidlashmoqda.

Ishonchning tabiatiga bo'lgan nuqtai-nazarlar, ishonch inson hayot faoliyatining qaysi ob'ektida va qaysi sohasida o'rganilayotganiga qarab, turli ijtimoiy fanlar vakillarida, shuningdek ruhshunoslik fanining turli tarmoqlarida farqlanishiga hayron qolmasa ham bo'ladi. Biroq ishonchning ba'zi bir universalroq va turg'unroq asoslari ham mavjud bo'lishi kerak. Yuqorida qayd etilganiday, ko'p hollarda ishonch ijobiy umidvorlik yoki kontragent xatti-harakatining sub'ektiga nisbatan maqbul umidvorligi sifatida tushuniladi. Ammo biz o'zimiz ishonadigan odamlardan o'zimiz loyiq bo'lgan salbiy baho, jazo yoki tanbehni olishdan qo'rqmaymiz. Biz ulardan adolatli munosabatni, axloqiy me'yorlarga to'g'ri keladigan xatti-harakatni kutamiz.

Adolatli xatti-harakatni kutish ishonchning yagona va eng muhim belgisi emas. Sub'ektning o'zaro aloqadan foydani kutishi ham shunday bo'la olmaydi. T.P.Skripkina ishonchni "odamning o'zini o'rab turgan olamdagi hodisalar va ob'ektlarni, shuningdek, boshqa odamlarni, ularning bo'lgusi ehtimoliy harakatlarini va o'zlarining taxminiy harakatlarini asossiz ravishda xavfsizlik (ishonchlilik) va vaziyat jihatdan foydali (ahamiyatli) xususiyatlarni berishi" sifatida izohlaydi. Ushbu izohda xavfsizlik va foydalilik (ahamiyatlilik) ishonchning asosiy belgilari sifatida aytiladi. Boshqa insonning ahamiyatliligi, shubhasiz, ishonchning asosiy belgilaridan biri sanaladi, shu bilan birga uni bir xil ma'noda vaziyat jihatdan foydali sifatida tushunish kerakmas.

Ishonchning asosiy belgilarini ijtimoiy hodisa sifatida izohlagan holda, ishonch va ishonchsizlikni ijtimoiy-psixologik fenomenlar sifatida tahlil qilishga o'tish zarur. Ishonch alohida mualliflar tomonidan tushunchalarning turli sinflariga kiritiladi va bu shunday bo'lishi ham mumkin. Xususan, u hissiyot, umidvorlik, holat, tasavvur, psixologik munosabat, kobiliyat, jarayon va hokazolar sifatida tushuniladi. Ko'p hollarda ishonch ijtimoiy asoslanganlik shakli (ishonchli munosabatlarni qurish qobiliyati va bunga tayyorlik), madaniyat (qoidalar va me'yorlar yig'indisi), ijtimoiy vaziyat va hokazolar sifatida tushuniladi. Masalan, V.N.Minina ishonchsizlikni ijtimoiy muammo sifatida tadqiq qiladi. U ishonchsizlik ostida ijtimoiy o'zaro aloqadagi sub'ektlar manfaatlarining muvozanati buzilishini

tushunadi, buning natijasida manfaatdor guruhlar shakllangan sharoitlarni yoki mavjud jamiyat tuzilmasini o'zgartirish bo'yicha talablarni qo'yadi va ilgari surilayotgan talablar qondirilishi uchun hokimiyatga, jamoatchilik fikriga ta'sir o'tkazadi.

Ishonch va ishonchsizlikka psixologik munosabat sifatida yondashish ijtimoiy psixologiya uchun eng istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi. SHuningdek, ishonchni o'zaro baholar, yo'nalishlar va umidlarni taqqoslash asosida shakllanadigan sheriklarning o'zaro munosabatlari sifatida tahlil qilish ham dolzarb hisoblanadi. Xususan, ishonch nafaqat o'zaro aloqaning boshqa ishtirokchisini va uning xatti-harakatlaridan kutilayotgan umidni baholashni, balki uning ishonayotgan shaxsni baholashini va uning ishonayotgan shaxsdan qanday xatti-harakatlarni kutayotganini ham ko'zda tutadi. Muammo shunday qo'yilganida, o'zaro aloqaning ikkinchi ishtirokchisi zo'r-bazo'r "ob'ekt" deb atalishi mumkin, chunki ishonch uning munosabati va xatti-harakatlariga yuqori darajada bog'liqlikni nazarda tutadi. Ijtimoiy ob'ektlarning ishonchli munosabatlarida o'zaro bir-birini baholash, tayyorlik va umid hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi, shuning uchun bunda ishonch sub'ekti va ob'ektidan ko'ra, ko'proq ishonchli munosabatlarning ikki tomoni haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi. Aynan shuning uchun biz o'z ishimizda ob'ekt terminidan foydalanganimiz yo'q, o'zaro aloqaning ikkinchi ishtirokchisini esa sherik deb atashni ma'qul ko'rdik. Ishbilarmonlar va yuristlar leksikonida ishonch ob'ektini ifodalovchi "benefitsiar" tushunchasidan ko'ra bizga ushbu tavsif o'rinli deyilgan ko'rinmoqda.

Ishonchga psixologik munosabat sifatida yondashish uning tuzilmasida kognitiv, emotsional va xatti-harakat komponentini ajratishni ko'zda tutadi. Kognitiv komponent o'zi, ishonchli munosabatlarning ikkinchi ishtirokchisi va o'zaro aloqa shartlari hamda sherikning xatti-harakatlari bilan bog'liq umidlar to'g'risidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi. Emotsional komponent o'zaro aloqadagi tomonlarning emotsional baholari va o'zaro aloqa jarayonining o'zi bilan xarakterlanadi. Xatti-harakat komponenti ikkinchi ishtirokchiga nisbatan, o'ziga nisbatan va yuzaga kelgan sharoitlarga nisbatan muayyan xatti-harakatlarga

tayyorlikni o'z ichiga oladi. Masalan, u bilan o'zaro alokada bo'lganda axloqiy me'yorlarga amal qilishga yoki muayyan ishonch darajasini ushlab turish maqsadida o'z manfaatlarini qurbon qilishga tayyorlik.

Ishonch va ishonchsizlikning umidvorlik sifatidagi tavsifi ko'proq tarqalgani bois, ushbu fenomenni biz qanday tushunganimiz haqida ma'lumot berish zarur. Bizning fikrimizcha, umidvorlik psixologik munosabatning alohida bir shakli bo'lib, unda vaj-sababli tarkibiy qism belgilovchi o'rinni egallaydi. Ya'ni biror bir ob'ekt yoki sherikka nisbatan umidvorlik - bu psixologik munosabat, u ushbu ob'ekt yoki sherik bilan o'zaro aloqa natijasida qondirilishi mumkin bo'lgan ehtiyojlar haqidagi tasavvurni, ushbu ehtiyojlarning qondirilishini oldindan sezib lazzatlanish tufayli yuzaga keladigan emotsiyalar hamda ularni qondirishga yordam beruvchi muayyan harakatlarni amalga oshirishga tayyorlikni o'z ichiga oladi.

Shunday kilib, psixologik munosabat sifatidagi ishonch ob'ekt yoki sherikka nisbatan qiziqish va hurmatni u bilan o'zaro aloqa natijasida qondirilishi mumkin bo'lgan ehtiyojlar to'g'risidagi tasavvurni; ularning qondirilishini oldindan sezib lazzatlanish tufayli yuzaga keladigan emotsiyalarni va sherikning ijobiy emotsional baholarini; bo'shshanglik va unga nisbatan ezgu ixtiyorni namoyon etishga, muvaffaqiyatli o'zaro aloqaga ko'maklashuvchi muayyan xarakatlarni amalga oshirishga so'zsiz tayyorlikni o'z ichiga oladi. O'z navbatida, ishonchsizlik quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: tavakkallarni anglash; xavfni, qo'rquvni sherikning salbiy emotsional baholari bilan birgalikda his qilish va o'zaro aloqaning ehtimoliy natijalarini his qilish; bezovtalik va keskinlik hamda aloqani to'xtatishga, tajovuzga javob qaytarishga yoki dushmanlikni sherikdan oldin namoyon etishga tayyorlik.

Biz uchun ishonchning tarkibiy qismlarining farq qiluvchi ma'noga egaligi muhim - bizning fikrimizcha, odam o'zi uchun foydani kutishi ishonch tuzilmasida belgilovchi yoki birlamchi mezon emas. Kishining ishonchli munosabatlarga tayyorligi, ularning keyingi rivoji uchun javobgarlikni his qilishi - ishonchning ahamiyatli tarkibiy qismlaridir.



A.Seligmen quyidagi vaziyatni ishonchning yo'qolishiga misol qilib ko'rsatadi: universitet professori o'zi aytayotgan gaplarning irqiy, etnik yoki gender jihatdan "siyosiy boadablik"ning zamonaviy me'yorlarga to'g'ri kelishi haqida qayg'urgan holda, har bir gapini o'ylab aytishga majbur, chunki ushbu guruhlar vakillarining salbiy reaksiyasidan xavfsiraydi. Biroq, bizning fikrimizcha, ishonchni bu tarzda tushunish quyidagini anglatadi: "Men, hech narsadan qo'rqmasdan, o'zimning printsiplarim va me'yorlarimga muvofiq ravishda ish tutishim mumkin, sizlar esa, buni xohlaysizmi yoki yo'qmi, bunga moslashishlaring kerak". Ishonchni bu tarzda tushunish uni rad etishga- boshqa kishiga nisbatan, uning individualligiga, o'ziga xosligiga, qadriyatlar va ma'nolarning alohida tizimiga nisbatan befarqqlikka aylanadi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizday, haqiqiy ishonch, birinchi navbatda, sherikning dunyoqarashiga nisbatan aynan qiziqish va hurmatni ko'zda tutadi. Shuningdek u, hamkorlik jarayonida sherik voz kechishga tayyor bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va printsiplarni hamda qurbonlikka keltirilmaydigan va shu bois muayyan vaziyatlarda sherikni o'zining xatti-harakat kodeksiga mos ravishda ish tutishiga undovchi narsalarni tushunishni ham nazarda tutadi. Faqatgina o'zaro dialog jarayonida ikkala tomonning ham pozitsiyasiga aniqlik kiritish, qadriyatlar va maqsadlar yagonaligi yaqqol bo'lgan o'zaro aloqa sohalorida ishonchning optimal darajasini shakllantirish va ziddiyatlar mavjud bo'lgan hamda nizolar ehtimoli bor bo'lgan sohalarga ba'zi bir o'zaro cheklovlarni kiritish imkonini beradi. Bir-biriga ishongan kishilar, ya'ni bir-biri uchun ahamiyatli bo'lgan, hamkorlik va birgalikda tinch yashashdan manfaatdor, munosabatlarning rivojlanishi uchun o'z javobgarligini anglab yetgan sheriklar potentsial xavfli sohalarda va o'zaro aloqa vaziyatlarida ehtiyotkorlik va nazorat choralarini ishlab chiqishlari lozim.

Munosabatlarni shakllantirishda odamlarning alohida toifalarini, shaxsiy xavfsizlikni mensimaslik, bizni shak-shubhasizlik va beg'arazlik ishonchning dastlabki asosi sifatidagi tushunishga qaytaradi. Ammo hamma tadqiqotchilar ham bu nuqtai-nazarni qo'llab-quvvatlamaydi. Xususan, I.V.Antonenko ishonchni

“sub’ektning ekvivalent xarakterdagi qarshi pozitivlik sifatiga ega ob’ektga ijobiy munosabatini bildiruvchi sub’ektning psixik hosilasi” sifatida tavsiflaydi. Olinadigan va beriladigan ne’mat hisobi ishonch emas, asosan shartnomaviy almashuv munosabatlarning belgisi hisoblanadi, degan fikrga e’tiroz bildirish mumkin. Bunday ishonchning manfaatli niyat bilan umumiylik tomonlari ko’p bo’lib, odamlar o’rtasidagi munosabatlarning ba’zi turlariga, xususan, ish yuzasidan o’zaro aloqalarga xosdir. Bir paytning o’zida ishonchning ekvivalent almashuv sharti o’rinli bo’lmagan shakllari va turlarini ajratish mumkin. Birinchi navbatda, u shaxsning emotsional yaqin, intim munosabatlariga xos emas. Ammo guruh darajasida ham, jamiyat darajasida ham ishonch yaxshi munosabat evaziga beriladigan mukofotga unchalik ham bog’liq emas.

Xususan, generalizatsiyalashgan (jamoatchilik) ishonch jamiyat a’zolarining javob xatti-harakatga yoki mukofotga umidvor bo’lish bilan bog’liq bo’lmagan xatti-harakatlari bilan saqlab turiladi. Bemorlarga, nochor faqirlarga va ko’makka muhtoj bo’lgan har qanday insonga yordam berish me’yorlarining mavjudligi ana shunday munosabatga misol bo’la oladi. Ushbu qoidalarga amal qilishda fuqarolik burchining bajarilishini yoki jamiyat tomonidan mukofotlanadigan ijtimoiy me’yorlarga amal qilinishini kuzatish mumkin, ammo unda, shubhasiz, insonning asosiy ijtimoiy ehtiyojlari qondirilishi ham bor (birgalikda, umumiylikda, birlashuvda, hamkorlikda. atrofdegilar haqida g’amxo’rlik qilishda va h.k.). Bu holda bunday insoniylikka xos va mas’uliyatli xatti-harakat har qanday ijtimoiy mavjudotga xos bo’lgan tabiiy xatti-harakat hisoblanadi.

Kishining irodaviy sifatlari ya’ni iroda kuchi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo’ladi. Har bir kishida irodaning ayrim sifatlari umr bo’yi mustahkamlanib, shu odamning xususiy sifatlari (ya’ni doimiy xislatlari) bo’lib qolishi mumkin. SHaxsning bu o’ziga xos xususiyatlari xarakter xislatlari deb ataladi. Har bir kishidagi biron bir irodaviy sifatlarning har qanday namoyon bo’lishi shu kishi xarakterining xislati bo’lavermaydi.

Ayrim hollarda hatto tasodifiy ravishda kishi kuchli iroda ko’rsatishi mumkin, ayrim hollarda mazkur kishining irodasi, umuman kuchli iroda kuchi shu

kishi xarakterining xislati ekanligidan dalolat beravermaydi. Bu kishining irodasi kuchli deb aytish uchun uning iroda kuchini bir marta emas, bir necha marotaba namoyon qilganini bilmoq kerak.

Kishining xarakterini ta'riflaganimizda falon kishi dadillik qildi, rost gapirdi demasdan, balki bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlaridir, xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb aytamiz. Kishi xarakterini, xislatlarini bilib olgach, uning biron ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib olamiz, oldindan aytib bera olamiz.

Puxta o'ylab ish ko'rishni o'zi yuksak g'oyaviylikka va kishining axloqiy tamoyillariga asoslangan taqdirda ijobiy xislat hisoblanadi. O'ylab, shoshmasdan bir qarorga keladigan kishilarni mulohazakor kishilar deb ataymiz.

Odatda o'zgaruvchan ayrim hislar kayfiyatlar ta'sirida tez bir qarorga keladigan xarakterli, dadil kishilar ham mavjud. Bular hissiyotga beriladigan tasodifiy kayfiyatli kishilardir. Bunday kishilar odatda sabotsizligi, shoshma-shosharligi va kalta o'ylashi bilan ajralib turadilar.

Kishi uncha ikkilanmasdan o'ylab, e'tibor bilan to'g'ri bir qarorga kelsa va shu qarorni dadil amalga oshira bilsa, dadillik xarakterning ijobiy xislati bo'ladi.

Bir necha imkoniyatdan birini tanlab olishga to'g'ri keladigan ish – harakat bir qadar xavf-xatar bilan bog'langan bir murakkab vaziyatda dadillik ayniqsa yaqqol ko'rinadi. Qat'iyatsizlik xarakterning salbiy xislatidir, qat'iyatsizlikda kishi sustlik bilan bir qarorga keladi, qabul qilgan qarorini ko'pincha o'z vaqtida bajarmaydi. Bunday odam qabul qilgan qarori to'g'riligiga shubhalanadi, turli imkoniyatlardan birini tanlab olishda ikkilanadi, ayniqsa qiladigan ish-harakatlari xavf-xatar bilan bog'langan bo'lsa, shunday ahvolga tushadi. SHu sababli qat'iyatsiz kishilar ko'pincha kam faolliklari bilan ajralib turadilar yoki umuman passiv bo'lib, yalqov, tanbal degan taassurot tug'diradilar.

Sabotlilik dadillikka chambarchas bog'liq bo'lib, xarakterning ijobiy xislati hisoblanadi. Xarakterning bu xislatiga ega bo'lgan kishilar qabul qilgan qarorlarini

odatda o'zgartirmaydilar, bekor qilmaydilar va bu qarorlarini bajarmasdan qo'ymaydilar. Bu kishilar va'dalarining ustidan chiqadilar, aytgan so'zlarini albatta qiladilar, ularning gapi bilan ishi bir bo'ladi. Ularga ishonsa bo'ladigan subutli insonlardir. Qabul qilingan qarorlarini ko'pincha bekor qiladigan, bergan va'dalarini ustidan chiqmaydigan, aytgan so'zidan tonadigan kishilar subutsiz hisoblanadi.

## **1.2.Shaxsning o'ziga ishonchi va dadillik muammosining mazmuni**

Psixologiyada ajratilgan eng ahamiyatli xarakter xususiyatlardan biri irodaviy xususiyatlardir. Irodaviy xususiyatlarning barchasi insonga o'z –o'zini va xulq - atvorini nazorat qilishga yordam beradi. O'z xatti – harakatlarimizni nazorat qilish jarayonida yuqoridagi irodaviy sifatlar katta yordam beradi. Shaxs o'z xatti – harakatlarini nazorat qila turib dadillik bilan biror ishga kirisha oladi. Shuning uchun ham shaxsdagi dadillik va botirlik iroda shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qachon dadillik (botirlik) haqida gapirish mumkin? Qachonki shaxs o'z qo'rquv va xavotirini yengib o'tsagina unda dadillik yuzaga chiqadi. Dadillik insonning psixologik va jismoniy sog'ligiga salbiy ta'sir etuvchi jarayonlar qo'rquv, xavotir, stress kabilarni yengib o'tishga yordam beradi. Shuning uchun ham psixologik lug'atlarda dadillikni rivojlantiruvchi maslahatlar ko'p uchraydi.

“Dadillik:” tushunchasi qo'rquv tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Haqiqatan ham shaxs qo'rquvni boshidan kechirmasa dadillik (botirlik)ni his qila olmaydi. Agar shaxs qo'rquvni his etmaganda edi dadillik nimaligini hech qachon tushuna olmagan bo'lar edi. Qo'rquv xavf soluvchi aniq bir vaziyatga nisbatan shaxsning munosabatidir. Qachonki ekstremal holat yuz berganda qo'rquv o'z mazmunini yo'qotadi, saxsda transformatsiya yuz beradi. Qo'rquv inqirozli vaziyatlarda kuchayib ketishi yoki susayib ketishi mumkin. Shunda shaxs qo'rquvdan qochish yoki qutulish uchun ma'lum harakatlar qilishga majbur bo'ladi, va ayni shu damda shaxsda dadillik(botirlik) yuzaga chiqadi.

Shaxsdagi dadillik shaxsning ma'naviy xarakter xususiyatlariga kiradi va u ma'lum vaziyatda yuzaga kelgan qo'rquv, ishonchsizlik, xavf – xatar va boshqa qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi. Psixologiyada dadillik irodanining tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi va dadillik qo'rquv va boshqa qiyinchiliklarni yengib o'tishga nisbatan shaxsning o'ziga xos tayyorgarligini bildiradi. Dadillikning eng asosiy xususiyatlari bo'lib qaror qabul qilishda o'ylab qat'iyat bilan harakat qilish, o'z tanlovi uchun mas'uliyatni to'liq bo'yniga olish va xatar bor damlarda ham tashabbuskorlikni o'z qo'liga ola bilish hisoblanadi. Demak

psixologiyada dadillikka pozitiv tomondan yondashiladi. Shaxs inqirozli hal qiluvchi vaziyatlarda o'z qabul qilgan qarorlaridan qaytsa yoki mas'uliyatdan bosh tortsa bu shaxsda dadillik yetishmayapti deb aytishimiz mumkin. Lekin dadillik shaxsda qo'rquvning umuman bo'lmasligi emas, albatta. Psixologiyada shaxs dadilligi 2 jihatdan ko'rib chiqiladi:

- a) Qandaydir hatti – harakatning xarakteristikasi sifatida
- b) Shaxsning xususiyati sifatida

Dadillikning bu jihatdan yoritilishi quyidagi jadvalda to'liqroq o'z aksini topgan:

Mazmun	Xususiyatlar
Xarakteristika	Dadil hatti – harakat nafaqat botir, dadil shaxs tomonidan balki dadillik yetishmaydigan shaxs tomonidan ham sodir etilishi mumkin.
Shaxs xususiyati	Ekstremal va xavfli vaziyatlarda o'zini tutish va harakatlarni amalga oshirishga yordam beruvchi shaxs xususiyati sifatida aniqlanadi

Dadillik qo'rquv yuzaga kelishi natijasida namoyon bo'ladigan tabiiy biologik himoya mexanizmlarini bostirib, o'z hatti – harakatlarini erkin nazorat qila olish qobiliyati sifatida bir qator xarakter xususiyatlariga egadir:

- Dadillik shaxsdan ma'lum maqsadlarga erishishga qaratilgan qat'iy harakatlarni amalga oshirishni talab etadi
- Dadillik shaxs inqirozli vaziyatlarda boshqalarning qarshiliklariga qaramay o'z ideallari, prinsiplari, hayotiy haqiqatlariga sodiq qolishini nazarda tutadi
- Dadillik o'z hayotiy qarashlari va pozisiyalarini erkin namoyon qila olishdir.(ayniqsa jamiyatdagi stereotip va tafakkur formalariga qarshi ko'p hollarda shunday dadillik yuzaga keladi)

• Dadillik boshqa odamga nisbatan adolatsizlik yoki negativ hatti – harakatlar qilinganda himoya sifatida yuzaga chiqadi

Dadil xatti – harakat turli sabalar orqali namoyon bo'lishi mumkin:

- ❖ Ma'naviy majburiyat
- ❖ Avvaldan anglangan xavf – xatar
- ❖ Qo'rqqoqlik
- ❖ G'am – andux

Agar shaxsda dadillik yetishmasa unda quyidagi xususiyatlar sust rivojlangan bo'ladi:

- ✓ Botirlik;
- ✓ Tashabbuskorlik
- ✓ Prinsipiiallik
- ✓ Tanqidiylik
- ✓ Qat'iyatlilik
- ✓ Jasurlik

Dadillik irodaning tarkibiga kiruvchi ijobiy xususiyat bo'lsa-da u o'rinli yoki noo'rin bo'lishi ham mumkin. O'rinli dadillik hamkorlik uchun xizmat qiladi. Bunda hatti – harakatlar anglangan tarzda amalga oshiriladi. Noo'rin dadillik quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 1) Impulsivlik bilan xarakterlanadi
- 2) Shablonlar, stereotiplar asoslanmagan prinsiplar tarzida namoyon bo'ladi.
- 3) Bunda dadillik ko'rsatishdan aniq maqsad, reja bo'lmaydi.

Dadillikni ham boshqa shaxs xususiyatlari kabi rivojlantirish mumkin. Buning uchun maqsadni aniqlab olish va maqsadga erishish uchun eng optimal metodlardan foydalanish lozim. Eng avvalo qilinishi lozim bo'lgan vazifalarni aniq rejalashtirib olish zarur. Bunda quyidagi qoidalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Dadillikni namoyon qilish uchun qo'rquvni yengishga qarshi tizimli harakatlar ketma – ketligi yaratilishi lozim.

2) Shaxsda o'z –o'ziga baho berishni va o'ziga nisbatan ishonchni kuchaytirib borish darkor.

3) Haftada 3 marta sport bilan shug'ullanib turish lozim.( Bu shaxs kayfiyatini yaxshilashga, uning irodasini mustahkamlashga, uddaburonlik, o'z – o'ziga ishonch va qat'iyatlilikni shakllantirishga yordam beradi)

4) Hozirda mavjud shaxsdagi qo'rquvlarni bartaraf etishga qaratilgan korreksion tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Psixologiyada dadillikni rivojlantiruvchi bir nechta metodlar ajratib ko'rsatilgan:

✚ Sekin – sekin yuklamani ko'paytirib boorish (inson qo'rquv va qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin bo'lgan sohalarda yuklama ko'paytirib boriladi)

✚ Tasodifiy harakatlar ( shaxs uchun tasodifiy vaziyat yaratiladi bunday vaziyatda shaxs o'z rejalarini o'zgartirib tashabbusni qo'liga olishi zarur bo'ladi;

✚ Dadillikning real namunasini ko'rsatish( bunda shaxs dadilligi orqali muvaffaqiyatlarga erishgan insonlarni o'z ko'zi bilan ko'radi)

✚ Relaksatsiya ( nafas gimnastikalari, meditatsiya, muskullar tonusini bo'shatuvchi mashqlar)

✚ Anglanganlik yoki tushunish. (dadillikni rivojlantirish uchun shaxs bunga undagan real sabablarni anglab yetmog'i zarur)

✚ O'z – o'zini anglash yoki o'z – o'zini rivojlantirish.

✚ O'z – o'zini analiz qilish, refleksiya va introspeksiya.

Amerikalik psixolog Lion Whiskers dadillikka bag'ishlab ko'plab maqolalar yozgan Unining fikriga ko'ra dadillikning quyidagi turlari mavjud:

- a) Jismoniy dadillik
- b) Hissiy dadillik
- c) Ijtimoiy dadillik
- d) Intellectual dadillik
- e) Ma'naviy dadillik
- f) Ruhiy dadillik



U ota onalarga bolalar dadilligini oshirish bo'yicha ko'plab tavsiyalar ishlab chiqqan. U dadillik turlari orasidan nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy dadillikni alohida ajratib ko'rsatadi. Chunki ijtimoiy dadilligi yuqori bo'lgan shaxslar jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlarga sababchi bo'ladilar. Eng o'g'ir vaziyatlarda insonlar taqdiri uchun javobgarlikni ana shunday shaxslargina o'z bo'yniga olishi mumkin. Uning fikriga ko'ra **ijtimoiy dadillik** – muvaffaqiyatsizliklarga tik boqish, hayotni o'z fikri va qarashlari bilan o'zgartira olishga o'zida kuch kuch topa olishdir. Ijtimoiy dadillik boshqalar fikri yoki kutuvlariga qarshi borish emas, balki balki ijtimoiy ya'ni jamiyat manfaatlarini o'z shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'ya olishdir. Bu yordamga muhtojlarga vaqtida yordam qo'lini cho'za olishdir. Ijtimoiy dadillik o'zgalarga yordam ko'rsatishda, jamiyat ishlarida faol qatnashishga nisbatan tashabbus ko'rsata olishda namoyon bo'ladi. Julia Yang Adlerning individual psixologiyasidan qanoatlangan holda Al Milliren bilan birga dadillik haqidagi “Dadillik” nomli kitobini 2008- yilda yozadi. Ushbu kitobda dadillikning psixologik fenomen sifatidagi ahamiyati juda keng ochib berilgan. Kundalik hayotimizda dadillikka ko'plab misollarni keltirish mumkin. Umuman olganda dadillik butun dunyoga mashhur qahramonlarda ham, oddiy insonlarda ham uchrab turadi. Dadillik – munosabatlar, emotsiyalar, aqliy faoliyat natijalari yoki ma'lum xatti – harakatlarda namoyon bo'luvchi fenomendir. Shaxs xavf – xatar, qiyinchilik yoki ma'lum qarshiliklarga duch kelgan damlarda dadilligini namoyon qilishi yoki umuman namoyon qilmasligi mumkin. Shaxs o'z – o'zidan botir, qo'rqmas bo'lib qolmaydi. Qachonki o'z qo'rquv va xavotirini yengib o'tsagina u dadillikka erishadi. Dadillik, botirlik – qiyinchiliklar borligini bilib turib xavf – xatarga tayyor turishdir. Dadillik hissiyotlar, xatti – harakatlar orqali yuzaga chiqadi. Dadillik katta ta'sirga ega bo'lgan hayotiy kuchdir

### **1.3. Shaxs ijtimoiylashuvida o'ziga ishonch va dadillikni namoyon bo'lishi**

Inson bolasi o'zi tug'ilib o'sgan oilasida ilk bor ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Uning ijtimoiylashuvi, avvalo o'z oilasidan, shaxslararo munosabatlar tizimida amalga oshadi. U bilan dastlabki ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi odamlar: uning ota-onasi, aka-opasi va oilasidagi boshqa a'zolaridir. Bolaning kelajakda shaxs sifatida shakllanib yetuk inson bo'lib kamol topishi hamda hayotda o'z o'rnini topib ketishida uning qanday oilada tarbiyalanganligi, oilada qanday psixologik iqlim hukm surganligi, o'z ota-onasi bilan bo'lgan o'zaro munosabatlarining qanday tarzda kechganligi muhim ahamiyatga egadir.

Shuning uchun ham insoniyat madaniyati tarixining ilk davrlaridanoq oila ibrati, ayniqsa, unda ota-ona va farzandlar hamda bolalarning o'zaro munosabatlariga alohida e'tibor berib kelingan. Har bir kishi doimo o'zining moddiy, ma'naviy madaniy, axloqiy va boshqa talab-ehtiyojlarini qondirib borishga harakat qiladi. Bu uning tabiiy va ijtimoiy zaruriyati bo'lib, kundankunga o'zgarib, davr taqozosiga muvofiqlashib turadi. Ana shu o'zgarish jarayonida kishilarning bir-biriga taqlid qilishi tobora keng va muhimroq mazmun kasb etadi.

Sharqning buyuk allomalari bo'lmish al-Buxoriy, at-Termiziy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Mahmud Qoshg'ariy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abulqosim Firdavsiy, Amir Temur, Sa'di SHeroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi ko'plab mutafakkirlarimiz bu borada o'zlarining asarlarida shaxs ijtimoiylashuvi masalasiga tegishli fikr-mulohazalarini kelajak avlodga meros qilib qoldirganlar.

Jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida shaxs ijtimoiylashuvi jarayonining ko'pgina olimlar o'rganishgan: Z.Freyd, J.Piaje, B.G.Ananov, B.P.Parigin, S.L.Rubinshteyn, K.A.Abulxanova-Slavskaya, I.S.Kon, D.I.Fel'dshteyn, M.V.Demin, N.P.Dubinina, A.F.Polis va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Ularning har biri o'z nazariyasiga muvofiq holda "ijtimoiylashuv" tushunchasiga turlicha ta'riflar beradilar. Sodda qilib aytganda ijtimoiylashuv-bu

individ tomonidan xulq-atvor namunalarini ijtimoiy me'yorlarni va qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni bo'lib, ular uning mazkur jamiyatda muvaffaqiyatli funktsionallashuvi uchun zarur bo'ladi. Ijtimoiylashuv jarayonida individning barcha atrofdagilari ishtirok etadi: oila, qo'shnilar, bolalar muassasasidagi tengdoshlar, maktabdagi tengdoshlar, ommaviy axborot vositalari va hokazolar.

Masalan, katta insonlarning o'z muammolari to'g'risidagi suhbat bolaga yetarlicha kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin, biroq uni tarbiyaviy jarayon deb atash mushkul. Bola turli-tuman ta'sirlarni (shu jumladan tarbiyaviy) faol qabul qilib ijtimoiylashadi. Ushbu ijtimoiylashuv jarayonida bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi va dadilligi muxim ahamiyatga ega bo'lib, bu narsa uning ijtimoiylashuvidagi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bolada ehtiyojlar bo'lganligi tufayli u faol bo'ladi. Agarda tarbiya mazkur ehtiyojlarni inobatga olsa, u holda bu bola faolligining rivojlanishiga yordam beradi. Agar tarbiyachilar bolaning faolligini chetlatishga harakat qilishsa, ya'ni ular o'z tarbiyaviy faoliyatlarini amalga oshirayotganlarida bolani "jim o'tirish" ga majbur qilishsa, u holda ideal garmonik shaxs emas balki deformatsiyalangan passiv shaxs shakllanadi. Bolaning faolligi yoki to'laqonli bostiriladi (bunda shaxs ijtimoiy moslashmagan bo'lib shakllanadi), yoki bo'lmasa, faollik turli-tuman kompensator yo'llar orqali amalga oshiriladi (masalan, hal qilinmagan ishni bola yashirincha bajrisha harakat qiladi).

Bundan salbiy xolatlar keyinchalik bolada o'ziga bo'lgan ishonch va dadillik sifatini pasaytirib, boladagi faollikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Rivojlanayotgan shaxs ijtimoiy munosabatlarning sub'ekti bo'lib boradi. Sekin-asta u boshqa insonga ta'sir o'tkaza olishga qodir bo'lib boradi. SHuningdek, u ijtimoiy ob'ekt sifatida o'z-o'ziga ham ta'sir ko'rsata oladi. Bunday ta'sirlar ijtimoiylashuv hisoblanmasa-da biroq shaxs rivojlanishining asosini tashkil qila oladi. Ijtimoiylashuv tushunchasiga quyidagi tushunchalar kirib ketadi: ta'lim, tarbiya shaxs rivojlanish. Individual darajadagi shaxs rivojlanishi o'z ichiga bir qator jarayonlarni qamrab oladi. Insonlarning shaxslari o'zaro bir-birlari bilan ta'sir qilganlaridagina shakllanadi; mazkur o'zaro ta'sirning xarakteriga quyidagi

omillar ta'sir ko'rsatadi: yosh, aqliy daraja, jins va boshqa. Atrofdagi muhit ham bola shaxsiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shaxsiy individual tajribaga asoslangan holda shaxs shakllanadi. Shaxs shakllanishining muhim jihati madaniyat hisoblanadi. Ijtimoiylashuvning yetakchi fenomenlariga xulq-atvor stereotiplarini amalda mavjud ijtimoiy me'yorlarni urf-odatlarini, qiziqishlarni qadriyat yo'nalishlarini va hokazolarni o'zlashtirish kiradi. Xulq-atvor stereotiplari signalli irsiyat ya'ni bolalikda kattalarga taqlid qilish yo'li orqali shakllanadi. Ular juda barqaror bo'lib, psixik nomutanosiblikning asosi bo'lishi mumkin (masalan, oilada, etnosda). Ijtimoiylashuvning bir qancha ijtimoiy-psixologik mexanizmlari mavjud. Identifikatsiya-bu individning ba'zi insonlar yoki guruhlar bilan o'zini taqqolslashi, o'xshatishi bo'lib, u turli-tuman xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishga imkon beradi. Identifikatsiyaga misol qilib jinsiy-rolli tipizatsiyani keltirish mumkin. Bu shunday jarayonki, unda individ ma'lum bir jins vakillarigagina xos bo'lgan psixik xususiyatlarni va xulq-atvorni o'zlashtiradi.

Taqlid qilish- bu individ tomonidan boshqa kishilarning xulq-atvor modellarini, tajribasini ongli yoki ongsiz amalga oshirilishidir.

Singdirish-individ tomonidan atrofdagi insonlarning (u muloqot qilayotgan) ichki tajribalarini o'y-xayollarini, his-tuyg'ularini va psixik holatlarini ongsiz amalga oshirish jarayonidir.

Ijtimoiy fasilitatsiya-ba'zi insonlarning boshqa kishilar faoliyatiga rag'batlantiruvchi ta'siri bo'lib, buning natijasida ularning faoliyati ancha erkin va jadal yuz beradi.

Konformlik-bu atrofdagi kishilarning o'y-fikrlari bilan tafovut borligini anglash hamda ular bilan tashqi rozilikni bildirib buni xulq-atvorda amalga oshirishdir.

Ijtimoiylashuvning asosiy yo'nalishlari inson hayotiy faoliyatining asosiy sohalariga muvofiq keladi: xulq-atvor sohasi, hissiy-emotsional soha bilish sohasi, kundalik-maishiy soha, ma'naviy-axloqiy soha, shaxslararo soha. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiylashuv jarayonida insonlar o'zlarini qanday tutish kerak ekanligini, turli-tuman vaziyatlarga qanday emotsional reaksiya bildirishni turli

tuman hissiyotlarni qanday his qilish va namoyon etishni (ifodalashni) o'rganadilar: qay tarzda atrofdagi tabiiy va ijtimoiy olamni o'rganishni; qanday qilib o'z turmushini tashkil etishni; qaysi axloqiy-etik mo'ljallarga tayanishni; shaxslararo muloqotda va birgalikdagi faoliyatda qay tarzda samarali ishtirok etishni o'rganadilar.

Insonning ijtimoiylashuvi ijtimoiy munosabatlar shu jumladan tarbiya omili ijtimoiy ishlab chiqarish, madaniy, ilmiy faoliyat va shaxsiy aloqalar omilidan iborat tashqi omillarning hamda biologik va psixologik omildan iborat ichki omillarning ta'siri natijasida shakllanadi.

Shaxsning shakllanishi ijtimoiylashishi uzviy bog'liq bo'lgan hissiy-iroda sohasining tiklanishi psixik rivojlanish bilan belgilanadigan murakkab va uzoq muddatli jarayondir. U atrofdagilarning birinchi navbatda bolaga tarbiya berayotgan katta yoshdagi kishilarning bevosita ta'siri ostida kechadi.

Shaxs ijtimoiylashuvining asosi-uning faoliyatidir. Takomillashuv qarama-qarshiliklarning birligi va kurashishidir, ana shu birlik hamda kurash natijasida ro'y beradigan o'z-o'zidan harakatlanishidir.

Shaxs takomillashuvining manbai bu ziddiyatlar va ularni qondirish yo'llari o'rtasidagi ziddiyatlardir. Insonning kamolotida ijtimoiy muhit juda ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar insonga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqa ya'ni insonlararo o'zaro munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, eng zarur bilim va tajribalarni egallaydi.

Hozirgi zamon psixologiya fani muhitga uning shaxs ijtimoiylauvidagi ta'sirining roliga alohida e'tibor beradi. Muhit tushunchasiga kiradigan ijtimoiy hayot voqealarining shaxsga ta'siri juda muhim ekanligini ko'rsatadi va ijtimoiy muhit abadiy emas, o'zgaruvchan, deb qaraydi. SHuning uchun muhit inson taqdirini belgilab beradigan omil, deb hisoblanmaydi. Biroq uning kuchli ta'siri ham rad qilinmaydi. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida

uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirilgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

Zamonaviy jamiyat o'zining bilimlariga, ko'nikma va malakalariga asoslangan mustaqil qarorlar qabul qilisha qodir bo'lgan hayotiy faoliyatida o'z qobiliyatlarini takomillashtirishga intiladigan yetuk shaxsga muhtoj hisoblanadi.

O'z-o'ziga nisbatan ishonchsiz shaxsning eng asosiy xususiyati, ularning ijtimoiy faoliyat davomida iloji boricha o'zini namoyish etishning turli shakllaridan qochishdir. O'z shaxsiy fikr yutuq, hohish-istak va ehtiyojlarini namoyon etishning istalgan shakli ular uchun noqulay (qo'rquv, uyalish, aybdorlik hissi bilan bog'liq holda) yoki iloji yo'qlig (ma'lum bilimlarning bo'lmasligi sababli) yoki ular uchun o'zini namoyish etishning ahamiyati yo'qligi tufayli bunday holat yuzaga keladi. Reallikda biz tez-tez bu uch faktor bilan kombinatsiyalarga duch kelamiz. Oqibatda shaxs sifatida ijtimoiy hayotda ishtirok etishdan voz kechadi. Bunda nafaqat ba'zi maqsadga erishishda faollikdan voz kechish, balki shu maqsaddan qanday bo'lsa shu holicha voz kechish yuzaga keladi. Bu shubhasiz, shaxsning o'z niyatlariga erishishdagi reallik va o'ziga ishonchning yo'qligidir.

Hozirgi zamon psixologiyasida o'z-o'ziga ishonchning "xulq-atvor" asosi ancha atroflicha tadqiq qilingan. O'z-o'ziga ishonchsizlikni keltirib chiqaradigan muammolardan biri "Xulq-atvor tanqisligi" deb ilk bor Arnol'd Lazarus tomonidan e'tirof etildi. Uning yondashuviga ko'ra, o'z-o'ziga ishonchsizlikning sababi faoliyat xulq-atvorlarining yetishmasligi, ya'ni ijtimoiy reallikni to'la-to'kis anglashga imkon beradigan xulq-atvorlar muqobilligining yetishmasligini Lazarus "Xulq-atvor tanqisligi" deb atadi va uning bo'linmasligini, u asosiy hal qiluvchi omil deb hisoblashni taklif qiladi. Shu bilan birga Lazarus 4 ta guruh bilimlar majmuini ham ajratib ko'rsatadi. Olimning fikricha, ular to'la-to'kis hayot faoliyati jumladan, o'z-o'ziga ishonch uchun ham yetarlidir. A.Lazarusning fikriga ko'ra, yetuk inson quyidagilarga ega bo'lishi kerak:

- o'zining hoxish va talablari haqida ochiqcha gapira olish qobiliyati;
- "yo'q" deya olish qobiliyati;

- aloqa o'rnata olish qobiliyati;
- suhbatni boshlash va tugatish qobiliyati.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ancha muhim sanaladi, ammo hali o'z-o'ziga ishonch tushunchasiga aynan mos keladi degani emas. O'z-o'ziga ishonch xulq-atvorini tahlil qilish davomida psixologlar tajovuzkorlik va ishonchlik o'rtasidagi yupqa (sezilarsiz) chegarani aniqlash muammosiga duch kelishdi. Ba'zilar, xususan, Volne, ular o'rtasidagi farqni umuman ajratmaydi. Undan tashqari ishonchsizlikni korrektsiyalash metodi sifatida qat'iy va tajovuzkor o'z-o'ziga dalda berish treningi ustida tadqiqot o'tkazadi. Boshqalari esa (masalan, A.Landj va P.Yakubovskiyalar) o'z-o'ziga ishonch, tajovuzkorlik va ishonchsizlik o'rtasida 3-darajali va har biri o'zining aniq farqlari bilan ajralib turishini ta'kidlashadi. Boshqa olimlarning fikricha, tajovuzkorlik va ishonchsizlik o'z-o'ziga nisbatan ishonchsiz xulq-atvorning namoyon bo'lishining turli shakllaridir. Buning oqibatida tashqi birgalikdagi faoliyat natijasidagi normal energiya oqibatida organizm autodistruksiyasi yoki boshqalarga yo'naltirishi oqibatida asossiz oqlanmagan tajovuzkorlik yuzaga keladi. Ammo ko'pchilik psixologlar tajovuzkorlik va ishonchsizlik 2 xil shaxs xususiyatlarini aks ettirishadi deb hisoblashadi. Bu ko'pincha tajovuzkor va ishonchsizlik shkalalari bo'yicha eng past ko'rsatkichni tashkil qiladi. Tajovuzkor va ishonchsizlikning yuqori darajalari bir-biriga mos kelishi mumkin, agark, inson tajovuzkor faoliyat ostida o'z ehtiyojlariga erishsa va hech qanday negativ ta'sir qiluvchi effektlarni ko'rmasa, bunday holda tajovuzkorlik, ishonchsizlik va individual xarakter xususiyatlari qatorida tushunilishi kerak. Xuddi shu tarzda tajovuzkor va ishonchsizlik birgalikda mavjud bo'lishi mumkin, agar biror-bir odam xulq-atvor repertuarida faqatgina agressiv holat bor bo'lsa tajovuzkorlik hech narsa olib kelmasada inson o'zini tajovuzkor tutishda davom etadi. Ko'p hollarda o'z-o'ziga ishongan odam kamdan-kam tajovuzkor holatda bo'lishadi. Ya'ni ularning ehtiyojlari qondirilganda, ular hech ham tajovuzkor holatga tushmaydi. SHular bilan bir qatorda o'z-o'ziga ishongan insonlarni kuzatishganda doim ularni ajratib turuvchi aniq va oddiy xususiyatlarning mavjudligi aniqlangan.

Munosabatda qiynalishdan kelib chiqadigan vaziyatlardagi nutqsiz xulq-atvorni tahlil qilish metodologichsini Rossiya psixologlari ishlab chiqqan. Quyida ishonchli va ishonchsizlik, tajovuzkorlik xulq-atvorli insonlarni aniq farqiga e'tibor qarating. O'z-o'ziga ishongan odamlar baland ovozda tushunarli qilib so'zlashishadi, lekin hech qachon baqirishgacha bormaydi, ko'pincha suhbatdoshining ko'ziga tik boqadi, lekin hecham suhbatdoshini ko'zi bilan "teshib" yubormaydi, har doim muloqotda optimal oraliq saqlaydi, suhbatdosh o'rtasidagi ko'rinmas chegarani buzmaydi. O'z-o'ziga ishongan odamlar suhbatda pauza saqlashni bilishadi, kamdan kam hollarda suhbatdoshining gapini bo'ladi, o'z fikrlarini aniq va tushunarli qilib gapirishga qodir bo'ladilar.

So'zlarni bayon qilishda o'z-o'ziga ishongan va dadil odamlar o'z tuyg'ulari, hoxishlari va noroziliklarini aniq va tushunarli asos bilan birgalikda gapirishadi, tez-tez "Men" olmoshini ishlatishadi. O'z shaxsiy fikrini bayon etishdan qo'rqishmaydi. Haqorat, dag'dag'a, ayblovlarni o'z-o'ziga ishongan odamlardan juda kamdan kam holatlarda eshitish mumkin. Atrofdagilarga noroziligini faqatgina o'z nomidan aytishi mumkin. Keltirilgan xususiyatlar o'z-o'zidan shakllanadi yoki odam shunday tug'iladi deb ayta olmaymiz. Xuddi shaxsning ijtimoiy xususiyatlari kabi, o'z-o'ziga ishonch xam ijtimoiylashuv jarayonida shakllanadi, ya'ni boshqa odamlar va ijtimoiy muhit bilan o'zaro muloqotda yuzaga keladi.

O'z navbatida o'z-o'ziga ishonchsizlikning yuzaga kelish sabablari haqida ko'plab tushuntirishlar mavjud bo'lib, ular odamda bir-birini to'ldiradi. Eng sodda tushuntirish Al'bert Banduraning "model asosidagi ta'lim" nazariyasida keltirilgan. Bu nazariyaga binoan tajovuzkor o'z-o'ziga ishonadigan yoki o'z-o'ziga ishonmaydigan xulq-atvorning yangi bilimlar repertuari bolaning o'z atrofidagi xulq-atvori qoliplarini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib o'zlashtiribko'chirib olishi natijasida yuzaga keladi. Ota-ona, qarindosh-urug', do'stlar ko'chirib olishning "modeli" sifatida xizmat qiladi. Natijada tajovuzkor o'z-o'ziga ishonchli yoki ishonchsiz xulq-atvor namunalarning nusxasiga aylanadi. Bu yangi odamlar



o'rtasida yoki bolani o'rab turganlar orasida bolaning boshqaruvchi nusxasiga aylanadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida turli xil omillar muxim rol' o'ynaydi, ammo birinchi navbatda yangi ijtimoiy bilimlarni qabul qilish imkoniyatining turfa xilligiga va ijtimoiy muhit bilimlariga bo'lgan mos keluvchi va bevosita reaksiyalarning turfa xilligi ko'proq ahamiyat kasb etadi. Qarama-qarshi holatlarda ishonchsizlikning shakllanishi uchun mos muhit yaraladi. o'z-o'ziga ishonchsiz odam shakllanishiga xos muhit taassurotlarga boy bo'lmaydi.

Kuzatish va ko'chirishga qaratilgan bilimlar repertuari juda chegaralangan. Ijtimoiy muhit, ota-onalar va tarbiyachilar reaksiyasining bir xilligi maqsadga muvofiq emas. Bu muhitda bola ko'proq tanqidga uchraydi. Tanqid doim baxtsizlikdan azob chekishga olib keladi. O'z-o'ziga salbiy baho va umidsizlikni kutib yashash, ichki dialogning odat tusiga aylanishiga olib keladi. Oqibatda inson reallikning yangi qirralarini kashf etish tashabbusdan voz kechishga, ko'zda tutilganlarni amalga oshirishga jur'atsizlik va sustkashlikning kelib chiqishiga olib keladi. Natijada, inson hayotida kam muvaffaqiyatga erishadi. Uning hayotida ko'plab faoliyatlari salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Bu azob-uqubatlarni insonni o'zi va yaqinlari sog'lig'ida o'z aksini topadi. Umumiy holda aytadigan bo'lsak, o'z-o'ziga ishonchsiz odam yashayotgan jamiyat va tashkilot a'zolarida tashabbuskorlik susayadi. Bunday jamiyat yoki tashkilotlarda keraksiz muhokama yoki taxminlarga xam ko'p energiya sarf qilinadi. Umumiy maqsadlarga erishish uchun insonning anglangan faoliyati kamayadi, har kim o'z dunyosida yashaydi.

Shunday qilib, kishiga o'z-o'ziga ishonch va dadillik tabiatan berilmagan. O'zgartirib va qaytadan shakllantirib bo'lmaydigan o'z-o'ziga ishonch va dadillik bo'lmaydi. "Mening o'z-o'zimga ishonchim shunaqa va men o'zimni hech narsa qila olmayman", deb bahona qilish psixologik jihatdan mutlaqo asossizdir. Har qanday kishi ham o'z-o'ziga ishonchining barcha ko'rinishlari uchun javobgardir, har bir kishi o'zini o'zi tarbiyalash imkoniga egaligi fanda va amaliyotda isbotlangan.

## **II-BOB. Shaxs taraqqiyotida o'ziga ishonch va dadillik sifatining rivojlanganligini o'rganish tajribasi**

### **2.1. Shaxs taraqqiyotida o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllantirish omillari**

Psixologiya fanida o'ziga nisbatan ishonch va dadillikning tarkib topishi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu omillar ishonchning turli darajalari va turlari uchun xosdir. D.Maknayt, L.Kummings va N.Chervani taklif etgan modelga ko'ra. shaxsning dastlabki ishonchi va dadillik quyidagi omillar ta'siri ostida shakllanadi: 1) shaxsga doir: ishonchga moyillikning mavjudligi, o'zaro aloqa ishtirokchilaridan birining ishonishga tayyorligi; 2) institutsional: "institutsional" ishonch; 3) kognitiv: toifalashtirish jarayonlari va nazorat illyuziyalari. Tadqiqotchilarning aksariyati omillarning quyidagi guruhlari ahamiyatini alohida qayd etishadi: o'zaro aloqa vaziyatining o'ziga xos xususiyati va ahamiyati, ishonch ob'ektining xarakteristikasi, ishonch sub'ektining shaxsga doir o'ziga xos xususiyatlari (I.V.Antonenko, A.I.Dontsov, V.S.Safonov, R.Xardin va boshqalar). Ishonishga tayyorlik holatiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxsga doir omillar orasida boshqa odamlarga va olamga ishonishga umumiy yo'naltirish berish hamda sub'ektiv nazorat darajasi eng yaxshi o'rganilgan omillar hisoblanadi (D.Maknayt, L.Kummings va N.Chervani, K.Parks va L.Xalbert, J.Rotter, M.Rozenberg va boshqalar). Shaxsning kirishimlilik ishonchning boshqa shaxsga doir determinantlari bilan bir qatorda L.A.Juravlyova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotchi ishonchning umumiy darajasi individning yuqori darajada ishga layoqatliligi (steniklik), anglanganlik, predmetlilik, sub'ektlilik, sotsiotsentriklik, egotsentriklik, shaxsga doir ahamiyatli maqsadlari bilan ijobiy ravishda o'zaro bog'lanib ketishini aniqlagan. Salbiy aloqalar esa ishonchning yuqori darajasi va muloqotdagi operatsional qiyinchiliklar orasida aniqlangan.

Ishonchni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, odamlar tomonidan boshqalarning ishonchliligini qabul qilish va ularning ishonchli munosabatlarga kirishish va dadil bo'lish istagi ko'p hollarda mavjud o'zaro aloqa tajribasiga bog'liq bo'ladi. O'zaro aloqalarning oldingi tarixi boshqa odamlarning

yo'nalishlari, niyatlari va vaj-sabablarini baholash imkonini beruvchi axborotni taqdim etadi. Ushbu axborot sherikning ishonchliligi borasidagi fikrlar va xatti-harakatlarni rejalashtirish uchun asos yaratadi.

Tadqiqotchilar kognitiv omillarga qo'shimcha ravishda ishonch va ishonchsizlikka doir fikr-mulohazalarda asimmetriyaning namoyon bo'lishiga turtki bo'luvchi tashkiliy omillarga ham qiziqish bildirmoqda. R.Bart va M.Kiez tashkilot tuzilmasidagi pozitsiya va ijtimoiy dinamika ishonch va ishonchsizlikni baholashga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rgangan. Yuqori tsxnologiyalar bo'yicha firma menejerlari tadqiq etilgan xuddi shu tadqiqotda ular ishonchsizlikning tarqalishiga uchinchi tomon ta'sir ko'rsatishini ham aniqlaydi. Ma'lum bo'lishicha, ushbu ta'sir ishonchsizlikka nisbatan juda ahamiyatli. Bunday hodisalarni izohlashda R.Bart va M.Kiez uchinchi tomonlar salbiy axborotga juda ta'sirchanligini va ko'p hollarda salbiy mish-mishlarga moyil ekanligini ta'kidlaydi. Shunga mos ravishda bilvosita alokalar "zaif" munosabatlar bilan bog'liq ishonchsizlikni "kuchli" munosabatlar orasidagi ishonchni oshirgandan ko'ra ko'proq oshiradi. R.Kramerning qayd etishicha, ushbu tadqiqotlarning empirik natijalari R.Xardin va D.Gambetta kabi nazariyotchilarning nuqtai-nazariga mos keladi.

P.SHtomikaning fikricha, jamiyatdagi ishonch/ishonchsizlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar spektri tuzilmaviy omillar guruhini ham o'z ichiga oladi. Ularga quyidagilar kiradi: ishonchni keltirib chiqaruvchi me'yorlarning aniqligi va ishonchsizlikni keltirib chiqaruvchi me'yorlar xaosi (apomiya); ishonchning tarqalishiga olib keluvchi ijtimoiy tashkilotning shaffofligi va ishonchsizlikning tarqalishiga olib keluvchi "xiralik", faoliyatning maxfiyligi; ishonchni mustahkamlovchi ijtimoiy tartibning barqarorligi va ishonchsizlikni mustahkamlovchi ijtimoiy tartibning o'zgaruvchanligi, o'zgarishlarning oldindan bilib bo'lmaydigan natijalari; hokimiyatga bo'lgan ishonchni belgilovchi hisobotlilik va hokimiyatga bo'lgan ishonchsizlikni belgilovchi uning o'zboshimchaligi, mas'uliyatsizligi; ishonchni aks ettiruvchi huquq va majburiyatlarning qonuniylashtirilishi, o'yinning belgilangan qoidalariga amal qilish va ishonchsizlikni aks ettiruvchi belgilangan o'yin qoidalarining yo'qligi,

zaiflik; ishonch hissini keltirib chiqaradigan o'z zimmasiga olingan majburiyat va vazifalarga qat'iy amal qilish va ishonchsizlik hissini keltirib chiqaradigan beparvolik, hohlagan ishni qilish; har bir jamiyat a'zosining qadr-qimmatini, daxlsizligi va avtonomligini tan olish va muhofaza qilish. O'z navbatida, V.N.Minina jamiyatimizda ishonchsizlikning tarqalishiga va mustahkamlanishiga zamin yaratuvchi quyidagi asosiy omillarni aniqlaydi: davlat tomonidan belgilanadigan bozor agentlari o'zaro aloqa qilish qoidalarining noaniqligi, ikki xil ma'noda tushunilishi; davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaning tarqalishi; davlat boshqaruvi tizimida demokratik institutlarning rivojlanmaganligi; davlat boshqaruvi tizimida tarixan shakllangan munosabatlarning formal va noformal tuzilmalari orasidagi ziddiyatlar. Ushbu tadqiqotlar ishonch/ishonchsizlikning institutsional regulyatorlari ahamiyatini, xususan, zamonaviy Rossiya jamiyatida ishonch/ishonchsizlik muhiti va madaniyatini belgilovchi ijtimoiy munosabatlarning formal-dinamik (tuzilmaviy) xarakteristikalarining alohida rolini namoyish etadi.

## **2.2. O'z o'ziga ishonch va dadillik sifati shakllanishining yoshga xos xususiyatlari**

Z.Freyd bo'yicha jinsiy davrlashtirish bilan bog'liq davrlarning biri ya'ni oral bosqich bola tug'ilgandan 18 oygacha davom etadi. Bu davrda ona suti bilan ozuqalanish, ovqatlanishga asosiy urg'u beriladi. Bu davrda onaning ishonchi va mehri yetakchi o'ringa ega. Yetarlicha mexr ko'rsatilgan bolda o'z-o'zidan ota-onasiga va atrofdagilarga nisbatan ishonch xissi shakllanadi va bu xis ta'sirida dadillik shakllanadi.

Ilk bolalik davrida bolalarning xatti-xarakatlari ularning xoxish va xissiyotlari juda o'zgaruvchan bo'ladi. Masalan, bolaning yiglashi xamda yigidan to'xtashi juda tez o'zgaradi. Ilk davrda bolada o'z yaqinlariga: onasi, otasi, buvi-bualari, tarbiyachisiga nisbatan muxabbat shakllanadi. Bola o'z yaqinlaridan maqtov olishga xarakat qiladi. Ota-onalar tomonidan bolaning xatti-xarakatlari va shaxsiy xususiyatlariga beradigan ijobiy emosional baholari ularda o'zlarining

layoqat va imkoniyatlariga nisbatan ishonch va dadillikni shakllantiradi. U o'z otanasiga nihoyatda qattiq bog'langan bo'lib, intizomli va itoatkor bo'ladi.

Ana shu bog'liqlik sababli bolaning asosiy extiyohlari qondiriladi, xavotirligi kamayadi. Onasi yonida bo'lgan bolalar ko'proq harakat qiladilar va atrof muxitni o'rganishga intiladilar. Bu davrda bola o'z ismini juda yaxshi o'zlashtiradi. Bola doimo o'z ismini himoya qiladi, uni boshqa ism bilan chaqirishlariga norozilik bildiradi. Kattalarning bola bilan qiladigan muomala-munosabati uning o'zini aloxida shaxs sifatida anglashini boshlanishga imkoniyat beradi. Bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Kattalarning bola bilan qanday muomala qilishlariga qarab uning o'z "Men"ini anglay boshlashi birmuncha avvalroq yoki kechroq yuzaga kelishi mumkin. 3 yoshli bola o'zini, o'z xoxish va extiyohlarini qondirishi mumkin bo'lgan manba deb biladi va bu uning "Menga bering", "Ko'taring, "Men xam boraman" kabi talablarida ko'rinadi. Uch yoshli bolalar o'zlarini o'zgalari bilan taqqoslay boshlaydilar, buning natijasida bolalarda o'z-o'zini baholash vujudga keladi. Shu davrdan boshlab bolalarda mustaqil bo'lish extiyohi yuzaga keladi va bu ularning "o'zim qilaman" qabilidagi so'zlarida namoyon bo'ladi.

Uch yoshga kelib bola o'zini kattalar bilan taqqoslay boshlaydi va kattalar qilishi mumkin bo'lgan (xuquqi bo'lgan), ular bajara oladigan xarakatlarni bajarishga intiladi. ".Men katta bo'lsam mashina haydayman, "Men sizga katta tort olib kelaman", "Mening yuzta qo'g'irchog'im bo'ladi" kabi xoxishlarini o'z tili bilan ifodalaydi va u kelasi zamonda gapirsa xam o'zining barcha xoxishlarini shu bugun amalga oshirishga xarakat qiladi. Ko'pincha bunday xislat qat'iylik va qaysarlik bilan namoyon bo'ladi. Bu qaysarlik asosan bolaning kattalarga bildirgan salbiy xatti-xarakatlarida namoyon bo'ladi. Bola o'zini mustaqil xarakat qila olishini anglagan vaqtdan boshlab, unda "o'zim qilaman" boshlanadi va bu yana qaysarlik va o'jarlik tarzida ko'rinadi. Uch yoshdagi krizis bola shaxsining ma'lum bir darajada rivojlanganligi va kattalar bajaradigan xatti-xarakatlarni qila olmayotganligini anglashi natijasi xisoblanadi. Krizis davrida yuzaga keladigan iroda, layoqat va boshqa bir qancha xususiyatlar uni shaxs bo'lib shakllanishiga

tayyorlaydi. Ushbu davrdagi krizisni bolaga yengib otishga yordam berish orqali ota-ona unda oziga bolgan ishonch va dadillikni shakllantirishga yordam beradi.

Bog'cha yoshidagi bolalar shaxsining shakllanishiga ko'ra, bu davrni uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi davr - bu 3-4 yosh oraliqida bo'lib, bola emosional jixatdan o'z-o'zini boshqarishning mustaxkamlanishi bilan bog'liqdir; ikkinchi davr - bu 4-5 yoshni tashkil qilib axloqiy o'z-o'zini boshqarish; uchinchi davr - esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Maktabgacha davrda axloqiy tushunchalar borgan sari qat'iylasha boradi. Axloqiy tushunchalar manbai sifatida, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shugullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari xam bo'lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shuningdek, kattalarning ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari ta'sirida o'tadi va mustaxkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maqtov olishga xarakat qiladi. Bu baho va maqtovlar bolaning muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan xarakatlarining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy xayotda oziga bolgan ishonch va dadillik sifatini hamda uning menini tolaqonli ahglashida va kasb tanlashida axamiyati juda kattadir.

Maktabgacha yosh davri bolalari uchun kattalar beradigan baho juda muxim. Bolalar birinchi navbatda ma'naviy axloq me'yor va qoidalarini, o'z majburiyatlariga munosabat, kun tartibiga rioya etish, xayvon va narsalar bilan muomala qilish me'yorini egallaydilar. Bunday me'yorlarni egallash bu yoshdagi bolalar uchun qiyin xisoblanib, ularni yaxshi o'zlashtirishi uchun syujetli-rolli o'yinlar yordam berishi mumkin. Bog'cha yoshining oxirlariga kelib, ko'pchilik bolalarda aniq bir axloqiy qarashlar tarkib topadi, shuningdek, odamlarga munosabat bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy sifatlar jumladan: kishilarga nisbatan diqqat-e'tiborli, mexribon bo'lish xususiyati xam shakllanadi. Katta yoshdagi bolalar ko'p xollarda o'z xatti-xarakatlari sabablarini tushuntirib bera oladilar.

3-3,5 yoshlar oraliqida bolalar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o'z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat, asosan,

ularning o'zlariga beradigan yuqori baholari asosida shakllanadi. 4 yoshli bolalar esa o'z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin, 4-5 yoshli bolalar xali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek o'zlari xaqida ma'lum bir xulosani bera olmaydilar. O'z-o'zini anglash layoqati katta bog'cha yoshidan rivojlanib, avval u qanday bo'lganini va kelajakda qanday bo'lishini fikrlab ko'rishga xarakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan "Men kichkina paytimda qanday bo'lgan edim", "Men katta bo'lganimda qanday bo'laman" singari savollarida ko'rinadi. Kelajak xaqida fikr yuritib, bolalar kelgusida kuchli, jasur, aqlli va boshqa qimmatli insoniy fazilatlarga ega bo'lishiga xarakat qiladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsi rivojlanishining asosiy o'zgarishlari, ularning o'z shaxsiy sifatlari, layoqatlari, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarini anglash, o'zini-o'zi anglashi kabi xislarning yuzaga kelishi xisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari xaqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir.

O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashqari boshqa faoliyatlar o'yin, muloqot va mehnat faoliyati ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bu faoliyatlar asosida muvaffaqiyatga erishish motivlari bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuqlarga erishish extiyojini qondirishga, shuningdek, tengdoshlari orasida o'z o'rniga ega bo'lishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu o'rin yoki mavqega erishish uchun ham bola yaxshi o'qishga xarakat qilishi mumkin. Bu yoshdagi bolalar doimiy ravishda o'zlari erishgan muvaffaqiyatini boshqa tengdoshlari muvaffaqiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bo'lish nihoyatda muxim. Kichik maktab davrida bolalardagi musobaqaga kirishish motivi tabiiy psixologik extiyoj xisoblanib, bu motiv ularga kuchli emosional zo'riqishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bog'cha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek

o'smirlik davrida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u xaqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish va oziga nisbatan ishonch xissining ortishi uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffaqiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy, shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustaxkamlash davri deb xisoblash mumkin. Bu davrda muvaffaqiyatga erishish motivlari tarkib topishi bilan bir qatorda, mehnatsevarlik va mustaqilik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik, asosan, o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustaxkamlanadi. Narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlar va munosabatlarning to'g'riligi kichik maktab yoshidagi bolalarning tafakkuri jarayonida aniklanib, mantiqiy ravishda chiqarilgan xulosalar bilan amaliyotning o'zida yaqqol isbot bo'lganida ular da ishonch hissi tug'iladi.

O'smirlik davrida shaxs taraqqiyotida dadillik va o'ziga bo'lgan ishonch muxim o'rnini egallaydi. Shuningdek, mazkur davr uchun xos bo'lgan psixologik, psixofiziologik xususiyatlarni rivojlanishi jadal kechishi bilan belgilanadi. SHu nuqtai nazardan olganda, o'smir shaxsida o'ziga nisbatan ishonch hissini o'rganish maqsadida tajriba sinov ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot ishida N.Raydasning o'ziga ishonch testidan foydanildi. Tadqiqot metodikasi sinaluvchilar guruhida o'tkazilib, natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

#### 1-jadval


#### O'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonch va dadillik hissini namoyon bo'lishi

Sinaluvchila	juda yuqori	yuqori	o'rta	past	juda past
--------------	-------------	--------	-------	------	-----------



Birinchi bosqich o'quvchilari	15%	20%	25%	24%	10%
Ikkinchi bosqich o'quvchilari	18%	22%	31%	18%	8%

Natijalarning diagramma ko'rinishida ifodalanish



Jadval natijalariga nazar tashlaydigan bo'lsak, birinchi bosqich o'quvchilarida juda yuqori ko'rsatkichi 15 % va 18% ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ulardagi o'ziga bino qo'yganlik darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Odatda bunday kishilar xudbin va mag'rur bo'ladilar. Chunki ular o'zlarini har doim haq deb o'ylaydilar. Hech bir inson ularni nohaq ekanliklariga ishonтира olmaydilar. Sinaluvchilarning natijalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, yuqori ko'rsatkich ularda 20% va 22% ni tashkil qilganligi bilan ajralib turadi. Ular doimiy faoliyatlarida o'ziga ishonadi. Ular har doim to'g'ri ish qilayapman, deb o'ylaydilar. Qaysi holatda xato qilayotganlarini juda yaxshi biladilar. Ularga boshqa odamlarning fikri mutlaqo kerak emas.

Metodika bo'yicha natijalarni o'rtacha ko'rsatkichiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 25% va 31% ni tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin. Bu ulardagi o'ziga nisbatan ishonch va dadillik darajasining o'rtacha ekanligi bilan tavsiflanadi. Bunday insonlar o'zlariga ishonadilar va boshqalarning ularga to'g'ri

ish qilayotganlarini uqtirish shart emas. Shuningdek, sinaluvchilarning past ko'rsatkich bo'yicha natijalari 24% va 18% ni tashkil qilganligi ham o'smir shaxsida o'z-o'ziga bo'lgan munosabatni nechog'lik qaror topganligidan dalolat beradi. Bunday o'smirlar guruhida o'ziga ishonchidan ko'ra ishonchsizlik kuchliroq. Dadillik sifati yaxshi shakllanmagan. Bunday insonlar kimlarningdir maslahatlari bilan o'zlariga ishonishlari mumkin. Ular har doim o'zgalarning rag'batiga ehtiyoj sezadilar.

### **2.3. Shaxs taraqqiyotida o'z-o'ziga nisbatan ishonch va dadillikning o'zaro aloqadorligini o'rganish tajribasi natijalari taxlili**

Ma'lumki, guruhga kiruvchi odamlar bir-birlariga nisbatan va guruh band bo'lgan faoliyatga nisbatan bir xil nuqtai nazarda tura olmaydilar. Guruhning har bir a'zosi o'zining ishchanlik va shaxsiy fazilatlariga o'z statusiga ya'ni uning guruhda tutgan o'rni haqida dalolat beradigan qilib mustahkamlanib qo'yilgan huquqlari va burchlariga uning xizmatlari va fazilatlarini guruh tomonidan tan olinishi yoki olinmasligini aks ettiradigan nufuziga binoan guruhdagi shaxslararo munosabatlar tizimida muayyan mavqega ega bo'ladi.

Shaxslararo munosabatlar – bu real hayotda o'zaro fikrlovchi va his etuvchi insonlar muloqotlarida jamlanuvchi munosabatlardir. Muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy psixologik hodisadir. Shaxslararo munosabatlar muloqot mohiyati bo'lib, uning o'ziga xos natijasidir. Shaxslararo munosabatlar – insonlarning o'zaro ichki kechinmalariga bog'liq bo'lib, xarakterlarida tashqi namoyon bo'luvchi shaxslararo o'zaro ta'sirning usullari hamdir ya'ni, insonlarning birgalikdagi faoliyatlari va muloqotlari jarayonida bir-birlariga o'tkazadigan o'zaro ta'sirlaridir.

Shaxslararo munosabatlar – bu ustanovkalar tizimi bo'lib, bu guruh a'zolarining bir-biriga ishonch va umidlari tashkiliy va mazmuniy birgalikdagi hayotiy munosabatlari ya'ni, insonlarning muloqotiga asoslangan qadriyatlar va birgalikdagi faoliyatlaridir. Shaxslararo munosabatlar tabiati ijtimoiy munosabatlar tabiatidan tub mohiyati bilan farq qiladi: - ularning zaruriy o'ziga xos xususiyati – emotsional (hissiyot) asosidir. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarini

guruhning psixologik “muhit” omili sifatida ko’rish mumkin. SHaxslararo munosabatlarning emotsional (hissiyot) asosi – insonlarning bir-biriga bo’lgan munosabatlari bo’yicha yuzaga keladigan aniq his-tuyg’ular asosida tug’iladigan va jamlanadigan hodisadir.

Shaxslararo munosabatlarning emotsional (hissiy) asosiga bu emotsional hodisalarni o’z ichiga oladi. Biroq, bu ijtimoiy psixologiyada odatda aynan bu sxemaning uchinchi tarkibiy qismi – tuyg’ular ko’proq tavsiflanadi. Bu atama juda keng ma’noda qo’llaniladi. Tabiiyki, tuyg’ular “yig’indi”si chegaralanmagandir. Biroq, ularni ikki katta guruhga bo’lish mumkin. Munosabatlar insonning me’yor hayotiy faoliyati, uning psixik sog’lomligi uchun asosiy zaruriyati va shart-sharoiti hisoblanadi, insonning o’zi faqatgina munosabatlar natijasida inson, shaxs bo’lib yetishadi. Munosabatlar – murakkab va ko’p ma’noli jarayondir.

Shaxslararo munosabatlar shaxsning guruh a’zolarining o’z mavqeiga ega bo’lishi guruh a’zolarining bir-birlarini o’zaro qo’llab-quvvatlashlari hamda jamoadagi psixologik muhitga bog’liq bo’lishi mumkin.

Shaxslararo munosabatlar – kichik guruhlarda ozmi yoki ko’pmi doimiy bevosita muntazam munosabatlar. Shaxslararo munosabatlarning asosiy sharti – munosabatlar ishtirokchilarining bir-birlari individual xususiyatlarini ma’lum darajada bilishlari bo’lib, bu faqatgina o’zaro tajriba, empatiya, bir-birini tushunish asosidagina mumkin bo’ladi. Shaxslararo munosabatlar jarayonlari ijtimoiy psixologiyada eng yaxshi o’rganilgan hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlarni o’rganish psixologiya fanida eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki inson shaxsining eng nufuzli va yetakchi faoliyatlaridan biri bo’lgan muloqot va u orqali o’zaro munosabatlar odamlar orasida umumiylik, o’xshashlik, uyg’unlik kabi sifatlar paydo bo’lishiga olib keladi. Ayniqsa, oila muhitida shaxslararo munosabatlarning, chunonchi, ota-ona va farzand orasidagi munosabatlarning o’ziga xos tomonlari shaxsning hayoti, faoliyatining samarasi va mazmuniga bevosita ta’sir etadi. SHunday ekan, insonlar orasida amalga oshadigan shaxslararo munosabatlar, ularning turli psixologik

xususiyatlarini o'rganish masalasi ijtimoiy psixologiya fanida muhim va dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Tabiiyki, har bir odam ma'lum shaxs sifatida insonlar qurshovida yashaydi. Oiladami, bog'cha yoki maktabdami, oliy o'quv yurtidami, ish joyidami u qandaydir odamlar guruhi, qandaydir jamoa bilan o'ziga xos munosabatga kirishadi. Guruh va jamoalar har doim ham o'zgarib turadi. Aniq shaxs esa bo'layotgan o'zgarishlarga moslashib guruh va jamoadagi odamlar bilan murakkab o'zaro munosabatlarga kirishishi kerak. Har bir shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lganligi sababli atrofdagi boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishmay turib mutlaqo yashay olmaydi.

O'smirlarda o'ziga nisbatan ishonch va dadillik hissini shakllanishi ijtimoiy soha bilan bog'liqligini o'rganish maqsadida ijtimoiy psixologik so'rovnoma metodidan foydalanildi. U orqali o'z-o'zini boshqarish tizimi bilan bog'liq munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. SHu maqsadida T.V.Snegireva tomonidan ishlab chiqilgan va N.G'.Kamilova tomonidan modifikatsiya qilingan ijtimoiy psixologik so'rovnoma metodikasidan foydalanishdi.

Metodika 101 ta savolnomalardan iborat bo'lib, savolnomalarga quyidagi javoblar variantidan ixtiyoriy ravishda tanlash imkoniyati ko'rsatib o'tiladi.

O'z-o'zini qabul qilish birinchi bosqich o'quvchilarida yuqori darajani tashkil qiladi. Bu ulardagi o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash natijasida yuzaga kelishi aniqlandi. Dastavval anglash darajasi past bo'lsa, keyinchalik bu yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. O'z-o'zini qabul qilmaslik shkalasi birinchi bosqich o'quvchilar guruhida past ko'rsatkichni, ikkinchi bosqich o'quvchilar guruhida esa yuqori darajani tashkil qiladi. Chunki shaxs o'z-o'zini anglash jarayonida ko'pgina to'siqlarga uchraydi va shuning natijasida ayrim o'zida sifat va xususiyatlari bilan kelisha olmay qoladi va jarayonda shaxsda turli noqulay sifatlar sezilib qolishi natijasida o'z-o'zini qabul qilmaslik yuzaga keladi.

**2-jadval**

**Ijtimoiy psixologik so'rovnoma metodikasi bo'yicha natijalarning jadval  
ko'rinishi**

№	Shkalalar	Birinchi bosqich	Ikkinchi bosqich
1	O'z-o'zini qabul qilish	22,3	25,7
2	o'z-o'zini qabul qilmaslik	16,7	12,3
3	Emotsional komfortlik	14,8	13,7
4	Emotsional diskomfort	15,8	16,9
5	Boshqalarni yaxshi ko'rish	13,2	11,4
6	Boshqalar bilan nizo	15,6	13,2
7	Ichki nazorat	18,2	12,3
8	Tashqi nazorat	17,6	11,8
9	Mustaqillik	16,4	18,7
10	Tobelik	14,6	10,7
11	Muammodan qochish	12,7	12,3

Emotsional komfort va diskamfort sinaluvchilarda ahamiyatli farqqa egaligi bilan ajralib turadi. Boshqalarni yaxshi ko'rish birinchi bosqich o'quvchilar guruhida ustunlikka ega. Boshqalar bilan nizo birinchi bosqich o'quvchilarida yuqori, ikkinchi bosqich o'quvchilarida esa past ko'rsatkichni tashkil qiladi, ya'ni bu ularda yoshga xos ijobiy sifatlarning tarkib topayotganligidan dalolat beradi. Ichki nazorat bo'yicha natijalar ham ahamiyatli darajani tashkil qiladi ya'ni ularda o'z-o'zini nazorat qila olish malakasi shakllanganligi bilan belgilanadi.

Tashqi nazorat sinaluvchilarda ma'lum bir farqlar ko'zga tashlanadi. Bu ma'lum ma'noda atrofdagi insonlarni nazorat qilishlari qo'proq zarurligi bilan belgilanadi. Mustaqillik shkalasi bo'yicha natijalar tahliliga ko'ra natijalar ahamiyatli darajani tashkil qilib, ularda mustaqil fikr, erkin dunyoqarash shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Tobelik shkalasi bo'yicha natijalar shuni ko'rsatadi har ikkala guruh sinaluvchilarida yuqori ko'rsatkich ya'ni ularda mustaqillik, o'zini tuta olish darajalari pastligi bilan belgilanadi.

Muammodan qochish shkalasi bo'yicha natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinaluvchilarda bir xil darajani tashkil qiladi. Chunki ular har qanday vaziyatda ham muammoga to'qnash kelmaslikka harakat qiladilar.

Metodika natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, shaxsda o'z-o'zini boshqarish va shaxs sifatlarini tarkib topishining mukammalligi ularda jamiyatga moslashuvni tarkib toptiruvchi asosiy omillardan sanaladi.

Jamoa oldida erkin fikrlashdan tortinish, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish, odamlar qarshisidagi qo'rquv, ular bilan munosabatga kirishishdan cho'chish. Bu o'ziga bo'lgan ishonchsizlik va dadillikning yetishmasligining ko'rinishlari desak mubolag'a bo'lmaydi. Demak, tortinchoqlik ko'p hollarda insonning o'ziga bo'lgan ishonchsizligidan yuzaga keladi. Shaxsning o'ziga ishonishi yoki o'ziga ishonmasligi hamda tortinchoqlik o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

O'ziga ishongan odam, ma'lum haq-huquqlarga ega ekanligini, buni atrofdagilarning hissiyotlari, o'zining orzulari, ehtiyojlari, g'am-qayg'ulariga chuqur kirib ketmay, fikrlarini aniq va ravon bayon etishni, u yoki bu vaziyatda boshqalardan kutgan xulq-atvor haqida so'zlashni biladi. U egallagan mavqeidan qat'iy nazar, boshqalar bilan «teppa-teng» munosabatlar o'rnatish, boshqa odamga iltimos bilan murojaat etish hamda zarur bo'lganda muloyimlik bilan rad javob berishni biladi.

O'ziga ishonchi bo'lmagan inson, aksincha, o'zining istak va ehtiyojlarini berkitadi, o'z tuyg'ularini hech qachon to'g'ridan-to'g'ri bayon etmay, ularni yashiradi - ular vaqti-vaqti bilan kutilmaganda portlash ko'rinishida tashqariga «otiladi» xolos, masalan, yig'i yoki baqirish, unga «yo'q» deyish qiyinlik qiladi. U ijtimoiy jihatidan undan yuqorida turgan odamlar bilan muloqotda bo'lishdan o'zini olib qochadi, uning nazarida o'zi haqidagi tasavvurlarga tahdid solish, aniqrog'i, o'z shaxsiy qadr-qimmati haqidagi tasavvurlarni saqlab qolishga qodir vaziyatlardan o'zini olib qochadi. Bunday vaziyatlar doirasi doimiy to'xtovsiz ravishda kengayib boradi, chunki har qanday hurmatsizlik, qo'pollikni namoyish etuvchi holat, garchi u shaxsan unga qaratilmagan bo'lsa-da, undagi «Men» uchun haqiqiy zarar sifatida qabul qilinadi.

Shu tariqa aytish mumkinki, o'ziga ishongan kishi o'zidagi «Men»ning ehtiyojlarini amalga oshirish huquqi borligiga ishonchi komildir, bunday amalga oshirish, birinchi galda u o'zidagi «Men» haqida qayg'urmasligi tufayli, boshqalarning ehtiyojlari nafsoniyatiga tegmaydi. O'ziga ishonmaydigan odam, aksincha, o'z haq-huquqlari, o'z shaxsiy haq-huquqlari yoki o'zidagi «Men»ni unga tahdid solishi mumkin bo'lgan vaziyatlardan himoya qilishda shunday himoyaga muhtojlikni doimo his etadi. Ular bunday vaziyatlarda muvaffaqiyatga erishish uchun o'zlaridagi imkoniyatning kamlik qilishini doimo his etib turadilar va shu bilan o'zini himoya qiladilar. SHu tufayli u doimo hayajon, xavotir va xatto qo'rquvni ham his etib yuradi.

Bundan tashqari, o'ziga ishonmaydigan odam, doimo bizga yanada odatiyroq bo'lgan «vijdon azobi» deb atalmish aybdorlik hissini tuyadi. Bu juda muhim, xatto odamzot individning qimmatbaho xususiyati deb aytish ham mumkin bo'lgan xususiyat, ushbu holatda o'ziga ishonmaydigan insonga qarshi qaratiladi. SHu sababli ham, bu o'z shaxsiy «Men»iga yetarlicha mehr ko'rsata olmaganlik uchun, uning oldidagi aybdorlik hissi deb aytish mumkin. SHu bilan bir vaqtda u, o'zini ko'rsatish, ichidagi «Men»ning ehtiyojlarini qondirish uchun, boshqalar oldidagi aybdorlik hissi hamdir.

O'ziga ishonmaydigan odam, xavotir, qo'rquv, ayb kabi salbiy tuyg'ular qopqoniga tushib qolganday bo'lib qoladi. Agar bunga o'zining nochorsizligi, o'z imkoniyatlari va bilimlarining hayotiy maqsad, vazifalarga mos kelmasligi to'g'risida kayg'urishni ham qo'shadigan bo'lsak, biz o'ta baxtsiz inson portretiga ega bo'lamiz.

O'ziga bo'lgan ishonchga oddiygina yo'l bilan, talablarni, imkoniyatlarni baholash o'rtasidagi nisbatni aniqlagan holda erishish mumkin. O'ziga ishonmaydigan odam o'z talab-larini farqlay olmaydi, aynan konkret vaziyatda qo'llaniladigan vazifalarni belgilay olmaydi.

U katta va juda katta omadga muhtoj va aynan shunga «talabgorlik» qiladi, zero faqatgina shu tariqa u o'zidagi «Men»ni yaxshi himoya qiladi va muvaffaqiyatsizliklari o'rnini to'ldira oladi. SHu bilan birga u o'z

imkoniyatlaridan shunchalik shubhalanadiki, natijada tamomila barbod bo'lishni kutadi. Bu holat psixologiyada noadekvatlik affekti deb atalib, birinchi bo'lib psixolog M.S.Neymark tomonidan L.I.Bojovich laboratoriyasida topilgan. Aynan shu maqsadlar, vazifalarga nisbatan normal munosabatlarga, zarur vositalarni izlashga to'sqinlik qiladi. Odamda tanlash imkoniyati darhol qisqarib ketadi, sababi har bir vaziyatda uning xayoli bir narsa - o'zidagi «Men»ni himoya qilish va ta'kidlash bilan band bo'ladi.

O'ziga ishongan odamda bunga ehtiyoj ham yo'q, shuning uchun u maqsad va vazifalarni tanlashda yetarlicha erkinlikka ega. Chunki unga na o'zini himoya qilish va na o'zini ko'rsatishning keragi bor, u har qanday darajadagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi mumkin va mos vositalarni izlashi, ularni o'rganishi, so'rashi, aniqlashtirishi mumkin.

O'ziga ishonchi mavjud bo'lgan odam bilmagan narsasini ochiqdan ochiq tan oladi, unda dadillik yetishmaydi, buni o'zi haqidagi tasavvurlar, shaxsiy layoqati bilan mutlaqo solishtirmaydi. O'ziga ishonmaydigan odam uchun bilmagan narsasini tan olish, juda ko'p hollarda o'zining zaifligini ko'rsatish, o'zining himoyasida kuchsizligini tan olishni anglatadi. SHuning uchun u savol bermaslikni ma'qul topadi. Buning natijasida, albatta shu bilan kamroq muvaffaqiyatga erishadi.



## XULOSA

O'rganilgan manbalar va o'tkazilgan tadqiqot ishlariga asoslangan holda quyidagi xulosalarni berish mumkin:

-shaxsda ishonch va dadillik sifatini shakllanganligi ulardagi o'zini menini va burchini to'g'ri anglagan holda harakat qilishga undaydi;

-shaxsda o'ziga ishonchni va dadillikni qaror topishi o'zgalar manfaatiga zarar yetkazmagan holda harakat qilishga va fikrlarini xotirjam ifodalay olishga undaydi;

-shaxsda o'ziga nisbatan ishonchning va dadillikning qaror topishi o'zining imkoniyatlari darajasini oqilona baholashlariga ta'sir ko'rsatadi;

-shaxsda ishonch va dadillik sifatining tarkib topganligi ularda ijobiy xulq-atvor xususiyatlarini rivojlanishiga va mustaqil bo'lishga xizmat qiladi;

-shaxsdagi ishonch va dadillik hissi ulardagi e'tiqod, ishonuvchanlik, muloqotchanlik sifatlarini taraqqiyoti bilan belgilanadi;

-shaxsda ishonch va ishonchsiz munosabatni qaror topishida guruh, jamoa va oila munosabatlari asosiy o'rin egallaydi;

-insonlarning o'zaro munosabat va aloqalari ishonch va dadillikni yuzaga keltiruvchi asosiy mexanizmlardan hisoblanadi.

-ilk bolalik davrida o'ziga ishonch va dadillik hissining shakllanishida bolani qo'llab quvvatlanishi va har bir savoliga yetarli darajada berilgan javoblar eng muhim omillar qatorida turadi.

-maktabgacha yosh davrida o'ziga nisbatan ishonch va dadillikning qaror topishida ota-onaning g'amho'rliqi va bolaga beradigan e'tiborining me'yorida bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

- Boshlang'ich sinf o'quvchilari ishonuvchan tashqi ta'sirotda beriluvchan bo'ladilar. Ana shu davrda o'qituvchi uchun

a) o'quvchilarning ma'naviyatiga ta'sir ko'rsatish ijobiy his-tuyg'ulari va ezgu niyatlarini qo'llab quvvatlash

b) ularni atrofdagi kishilarga erdam berishga undash to'g'ri mulohaza yuritishga

o'rgatish noma'qbul qiliqlardan tiyish tabiat manzaralarini kuzatishga va musiqa tinglashga odatlantirish

v) ularga nimalar bilan shug'ullanish kerakligini burch hissini tushuntirish

g) ular bilan o'qilgan kitoblarni ko'rilgan tomoshlarni muhokama qilish imkoniyati tug'iladi.

-o'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonchning qaror topishi ulardagi o'zini o'zi qabul qilish, boshqalarni yaxshi ko'rish, mustaqillik kabi sifatlarning uyg'unlashuvida yaqqol ko'rinadi;

-shaxs mustaqilligi o'ziga nisbatan ishonchni ta'minlovchi omillardan sanaladi;

-o'smir shaxsida o'zini o'zi anglashni tarkib topishi o'ziga nisbatan ishonch va dadillikni ta'minlovchi omil hisoblanadi.

-o'smir shaxsida o'zini o'zi nazorat qilishni rivojlanganligi ularda o'ziga nisbatan ishonchni taraqqiyoti bilan belgilanadi;

-o'smir shaxsida o'zini o'zi boshqarish malakasini rivojlanishi ularda o'ziga nisbatan ishonchni qaror topishiga xizmat qiladi;

-o'smir shaxsida o'z-o'ziga bo'lgan munosabat negizida o'ziga nisbatan hurmat, o'zini qadrlash kabi xususiyatlarini rivojlanishi ulardagi o'ziga nisbatan ishonchni tarkib topishiga yordam beradi.

Keltirilgan xulosalarga muvofiq ravishda quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

-barcha yosh davridagi bolalarda o'z shaxsiga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish lozim;

-shaxslararo munosabatlar tizimiga xos bo'lgan qonun va qonuniyatlarni o'zlashtirishi lozim;

-har bir kishida o'z shaxsiga nisbatan hurmat va samimiy munosabatni qaror toptirish kerak;

-o'smirlar jamoasida psixologik trening mashg'ulotlarini o'tkazish orqali o'ziga nisbatan ishonch hissini rivojlantirish lozim;

-shaxsda o'zini o'zi adekvat baholash, qobiliyat va imkoniyatlaridan unumli foydalanish malakasini tarkib toptirish;

-shaxsda o'z imkoniyatlarini baholashni tarkib toptirish lozim.

Tavsiya sifatida shaxsda o'ziga bo'lgan ishonch va dadillikni shakllantirish maqsadida quyidagilarni aytgan bo'lar edik:

- O'zingizning o'z kuchli va zaif tomonlaringizni tan oling va o'z maqsadlaringizni tegishlicha shakllantiring.

- Hayotda siz uchun nima muhim, nimaga ishonishingiz, o'z hayotingizni qanday ko'rishni istashingizni hal qiling. O'z rejalararingizni analiz qilib chiqing va ularga bugungi kun nuqtai-nazaridan, o'sish mo'ljallangan chog'da undan foydalanish uchun baho bering.

- O'z o'tmishingizni analiz qilib, sizni hozirgi mavqeingizga olib kelgan narsani aniqlang. Sizni azoblanishga majbur etgan, yoki qo'lidan kelsa ham yordam bermagan kimsalarni tushunish va ularni kechirishga harakat qiling. O'zingizdan o'zingiz, qilgan xatoliklar, adashishlar va yomon hulqlar uchun kechirim so'rang. Og'ir xotiralardan hech bo'lmaganda biron-bir foyda olganingizdan so'ng, ularni unuting va ularga boshqa qaytmang. Yomon o'tmish xotirangizda, uni chiqarib tashlamaguningizgacha yashayveradi. Yaxshisi hozirgi xotiralar, kichik bo'lsa ham muvaffaqiyatlar uchun xotirangizdan joy ajrating.

- Aybdorlik va uyat hissi sizga muvaffaqiyat qozonish imkonini bermaydi. Ularga berilmang.

- O'z xulqingizning sabablarini shaxsiyatingizdagi kamchiliklardan emas, balki hozirgi vaziyatdagi jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalardan qidiring.

- Esda tutingki, har qanday hodisani turlicha baholash mumkin. Voqelik - har kim alohida-alohida ko'radigan narsa emas, bu odamlar orasida narsalarni ma'lum nomlar bilan atashga kelishishning natijasidir xolos. Bunday qarash insonlarga sabrliroq munosabatda bo'lishingizga, tahqirlanish bo'lib tuyulishi mumkin bo'lgan narsani ochiq ko'ngillik bilan boshdan kechirishingizga imkon beradi.

- O'zingiz to'g'ringizda hech qachon yomon gapirmang; ayniqsa, o'zingizga – «ahmoq», «xunuk», «qo'lidan kelmaydigan», «omadsiz», «to'g'rilab bo'lmaydigan» kabi salbiy xususiyatlarni olishdan ehtiyot bo'ling.

-. Xatti-harakatlaringiz har qanaqasiga baholanishi mumkin, agar ular konstruktiv tanqidga uchrasa, bundan o'z manfaatingiz yo'lida foydalaning, lekin boshqalar sizni shaxs sifatida tanqid qilishlariga yo'l qo'ymang.

- Yodingizda bo'lsin, boshqa mag'lubiyat – bu omaddir; bundan shunday xulosaga kelishingiz mumkinki, harakatlaringizga arzimaydigan, balki qutilishga muvaffaq bo'lgan, ortidan yirik muammolar olib kelayotgan yolg'on maqsadlar ketidan ketgansiz.

-O'zingizni noqulay his etadigan insonlar atrofida bo'lmaslikka harakat qiling. Agar o'zingiz yoki ularning, ishonchini his etish uchun shunchaki o'zgartirishning imkoni bo'lmasa, yaxshisi ulardan voz keching.

- O'zingizni bo'sh, erkin his qilishga, fikrlaringizga quloq solishga, dilingizga yoqqan narsa bilan shug'ullanishga, o'z holingizga qo'yishga imkon bering. Shunda siz o'zingizni yaxshiroq tushunasiz va o'zingizni hurmat qila boshlaysiz.

- Muloqot qilishni mashq qiling. Odamlar fikr almashadigan bu energiyadan rohatlaning, ular shunchalik bir-biriga o'xshamaydi va o'ziga xos, ular sizning aka-ukalaringiz, opa-singillaringizdir. Ular qo'rquv va ishonchsizlikni his etishlari mumkin, deb faraz qiling va ularga yordam berishga harakat qilib ko'ring. Ulardan nima istashingiz va ularga nima bera olishingizni hal qiling. So'ngra esa ularga siz bunday almashinuvga tayyor ekanligingizni bildiring.-

-. Ichingizdagi «Men»ni haddan ziyod himoyalashni bas qiling – u siz o'ylagandan ham ko'ra mahkamrok va egiluvchanroq.

- O'zingiz uchun, maqsadingizga yetishish yo'lida yanada mayda va oraliq maqsadlarga yetishish zarur bo'lgan, bir necha yirik maqsadlarni tanlab oling. Ushbu oraliq maqsadlarga erishish uchun kerakli vositalarni tarozda torting. Har bir muvaffaqiyatli qadamingizni e'tiborsiz qoldirmang va o'zingizni tetiklashtirish

hamda maqtab turishni unutmang. Sodda bo'lib tuyulishdan qo'rqmang, axir sizni hech kim eshitayotgani yo'q-ku.

-Har qanday kichkinagina yutug'ingiz uchun o'zingizni rag'batlantirishni unutmang. Masalan: o'zingizga yoqadigan biror-bir narsa harid qiling, qimmatbaho bo'lishi shart emas, muhimi u sizning yutug'ingiz.

-Hayotingizda uchragan qiyinchiliklarni, doim uning ijobiy tomonlarini o'ylashga harakat qiling. Insonni o'zi muammoni kattalashtirib yuboradi. Shunda muammoga chuqur kirib ketmaysiz va uning yechimini oson topasiz.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида бағишланган Олий Мажлис палаталарининг кўшма мажлисидаги нутқи /Ш.М. Мирзиёев. - Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2016. -56 б
2. Каримов И.А. Асосий вазифаларимиз Ватан тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 80
3. Абульханова К.А. Психология и сознание личности. М.- Воронеж, 1999.
4. Битянова М.Р. Социальная психология. -М. 1994.
5. V.Karimova “Ijtimoiy psixologiya” Toshkent 2005 y
6. Каримова В.М. Ижтимоий психология ва ижтимоий амалиёт. Тошкент, - 1999.- 96 б.
7. Бодалев А. А. О взаимосвязи общения и отношения // Вопр. психол. 2004. 1. С. 122 - 126.
8. Бодалев А. А. Психология межличностных отношений: (к 100-летию со дня рождения В.И. Мясищева) // Вопр. психол. 2003. 2. С. 86 - 91.
9. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. М., 2006.- 340с.
10. Волков, Б.С., Волкова Возрастная психология. В 2-х частях. Ч.2: От младшего школьного возраста до юношества: учебное пособие для студентов вузов, обучающихся по пед. специальностям / Б.С. Волков, Н.В. Волкова, под ред. Б.С.Волкова. - М.: Гуманитарный издательский центр ВЛАДОС, 2005. - 343 с.
11. Гаврилова Т.П. Экспериментальное изучение эмпатии у детей младшего школьного возраста // Вопросы психологии. 2004. -350с.
12. Давлетшин М.Г, М. Мавлонов, С. Туйчиева «Ёш даврлари ва педагогик психология» Тошкент-2004 й.

13. Дўстмухамедова Ш.А, Нишанова З.Т, Эргашев П, Н.Расулова, Салиева Д, “Кичик мактаб ёшидаги ўқувчиларда психодиагностика ва психокоррекция масалалари”// ҚДПИ - 2012 йил.
14. Каримова В.М. Оила психологияси. Тошкент – 2006й
15. Ключева Н.В., Касаткина Ю.В. Учим детей общению. -Ярославль: Академия развития, 1997.-237с.
16. Коломинский, Я.Л. Социальная психология школьного класса: научно-метод. Пособие для педагогов и психологов / Я.Л. Коломинский. - Минск: ООО «ФУА информ», 2003 - 312 с.
17. Нишонова З.Т. , Халилова Н.И. Психокоррекция. Тошкент. – 2006
18. Нишонова З.Т. Рахимова И.Ғ Тортинчоклик психологияси Тошкент 2011й
19. Купрейченко А.Б. Психология доверия и недоверия / А.Б. Купрейченко.— М. : ИП РАН, 2008 .— 569 с.

## ILOVALAR

### IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK MOSLASHGANLIK XARAKTERISTIKALARINI O'RGANISH METODIKASI

Ijtimoiy – psixologik moslashganlik shkalasi (IPM)ning original varianti 1954 yil F.K.Rodgers va R.Daymond tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur so'rovnoma ommaviy maktabdagi «tarbiyasi og'ir bolalar»ning emotsiya va xulq-atvor sohasidagi buzilishlarini o'rganish uchun (Murzenko V.A. 1977), maktab adaptatsiyasi – dezadaptatsiyasining ko'rsatkichi sifatida boshlang'ich ta'limdan o'rta ta'limga o'tishdagi qiyinchiliklarni o'rganish uchun (Prioxan A.M. 1984), ixtisoslashtirilgan maktabdagi ta'limning murakkablashgan shakllariga moslashish jarayonida o'smirlarda o'z-o'zini anglashning shakllanishiga xos xususiyatlarni o'rganish uchun (Snegireva T.V. 1978), o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari sharoitiga moslashishning individual xususiyatlarini o'rganish uchun (Osnitskiy A.K.1992) o'quvchilarning turli guruhlarida sinab ko'rilgan.

Metodika o'smirlar va o'spirinlar uchun mo'ljallangan. Biroq u kichik o'smirlar bilan ishlashda ham samara berishi mumkin.

Metodika asosini tashkil qilgan insonning ijtimoiy muhit va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati modeli o'z-o'zida rivojlanadigan, o'z xulq-atvori uchun javob berishga qodir sub'ekt sifatida shaxs kontseptsiyasidan kelib chiqadi. SHkala 101 ta hukmdan iborat bo'lib, ularning 37 tasi shaxsning ijtimoiy-psixologik moslashganlik mezonlariga muvofiq keladi (bu mezonlar ko'p jihatdan shaxs yetukligi mezonlariga mos kelib, ular orasida o'z qadrini bilish va o'zgalarni hurmat qilishga qodirlik, faoliyat va munosabatlarning real amaliyoti uchun ochiqlik, o'z muammolarini tushunish va ularni hal etishga urinish kabilar mavjud). Keyingi 37 ta hukm moslashmaganlik mezonlariga oid (o'zini va boshqalarni qanday bo'lsa shundayligicha qabul qila olmaslik, shaxsiy tajriba ustida fikr yuritishda «to'siqlar»ning mavjudligi, muammolardan qochish, psixik jarayonlarning mo'rtligi kabilar). Qolgan 27 betaraf hukmning bir qismi yolg'on shkalasini tashkil etadi.

**Yo'riqnoma:** So'rovnomaga inson, uning hayot tarzi: kechinmalari, fikrlari, odatlari, xulq-atvor uslubi haqidagi hukmlar kiritilgan. Ularni o'z hayot tarzimiz bilan nisbatlash mumkin.

Har bir hukmni o'qib, o'z odatlaringizga, hayot tarzingizga solishtiring va bu hukm Sizga qay darajada taalluqli ekanini baholang. Buning uchun javob varaqasidagi «0» dan «6» gacha bo'lgan 7 ta bahodan, fikringizga ko'ra, muvofiq kelgan bittasini tanlang.

### IPM /IJTIMOIIY – PSIXOLOGIK MOSLASHGANLIK/ SO'ROVNOMASI.

- 1.Kim bilandir suhbatga kirishayotib, o'zini noqulay his etadi.
- 2.Boshqalar yonida ochilib – sochilishga hohishi yo'q.
- 3.Har ishda bellashuv, musobaqa, kurashni yoqtiradi.
- 4.O'ziga nisbatan yuqori talablar qo'yadi.
- 5.Ko'pincha qilib qo'ygan ishi uchun o'zini koyiydi.
- 6.Ko'pincha o'zini kamsitilgan sezadi.



7. Qarama- qarshi jins vakillaridan kimgadir yoqib qolishi mumkinligiga shubha bilan qaraydi.
8. Doimo va'dasining ustidan chiqadi.
9. Atrofdagilar bilan iliq, samimiy munosabatda.
10. Bosiq, ichimdagini top, deydigan inson.
11. Omadsizliklarida o'zini ayblaydi.
12. Mas'uliyatli odam: unga ishonsa bo'ladi.
13. Nimanidir o'zgartirish qo'lidan kelmasligi, barcha urinishlar foydasiz ekanini biladi.
14. Ko'p narsalarga tengdoshlari nigohi bilan qaraydi.
15. Umuman amal qilish lozim bo'lgan qoida va talablarni qabul qiladi.
16. O'z fikri va qoidalari yetishmaydi.
17. Xayol surishni, ba'zan kuppa- kunduzi, yaxshi ko'radi. Xayollaridan haqiqatga qiyinchilik bilan qaytadi.
18. Hamma vaqt himoya va hatto hujumga tayyor: xafagarchiliklariga asir bo'lib, qasos yo'llarini tanlab yuradi.
19. O'zini va xatti - harakatlarini boshqara oladi, o'zini majbur qila oladi, ruxsat eta oladi: o'z-o'zini nazorat uning uchun muammo emas.
20. Tez – tez kayfiyati buziladi: dangasaligi tutadi.
21. Atrofdagilar uni qiziqitirmaydi, butun xayoli o'zida, o'zi bilan ovora.
22. Odamlar, odatda unga yoqadi.
23. O'z hissiyotidan uyalmaydi, ochiq ifoda etadi.
24. Odamlar ko'p bo'lsa, bir oz yolg'izlik seziladi.
25. Hozir o'zida emas, hammasini yig'ishtirib, biror joyga bekinib olgim kelyapti.
26. Odatda, atrofdagilar bilan munosabatlari yaxshi.
27. O'z - o'zi bilan kurashish tobora qiyin bo'lyapti.
28. Atrofdagilarning o'z - o'zidan yaxshi munosabatda bo'lishi shubhaliroq ko'rinadi.
29. Yaxshilikka ishonadi, optimist.
30. Qaysar odam, bundaylar bilan murosas qilish qiyin.
31. Odamlarga nisbatan tanqidiy qaraydi, ular shunga loyiq deb bilsa, tanqid qiladi.
32. O'zini yetakchi emas, ergashuvchi deb biladi: hamma vaqt ham mustaqil fikrlay va harakatlana olmaydi.
33. Uni taniganlarning ko'pchiligi unga yaxshi munosabatda, yaxshi ko'rishadi.
34. Ba'zan shunday fikrlar keladiki, birovga aytging kelmaydi.
35. Tashqi ko'rinishi dilni tortadi.
36. O'zini ojiz biladi, kimdir yonida bo'lishiga muhtoj.
37. Qaror qilgach, unga amal qiladi.
38. Ko'rinishdan mustaqil qaror qilganday, birovlarning ta'siridan qutula olmaydi.
39. O'zini ayblashga sabab yo'qday bo'lsa-da, aybdor his qiladi.
40. O'zini o'rab turgan narsalarni yoqtirmaydi.
41. Hamma narsadan mamnun.
42. O'zini yo'qotib qo'ygan: o'zini qo'lga ololmaydi, kuchlarini jamlay olmaydi.
43. Horg'in: avval qiziqtirgan narsalarining barisiga behosdan befarq bo'lib qolgan.

44. Xotirjam, bosiq.
45. Jahli chiqqanda, tez – tez o'zini yo'qotib qo'yadi.
46. Ko'pincha o'zini xo'rlangan deb biladi.
47. Betoqat, shoshma- shoshar odam, bosiqlik yetishmaydi.
48. G'iybat ham qilib turadi.
49. Hissiyotlariga ko'p ham ishonavermaydi, ular ba'zida aldamchi bo'lib chiqadi.
50. O'z -o'zingcha qolish ancha qiyin.
51. Hissiyot emas aql birinchi o'rinda, avval o'ylab olib ish ko'radi.
52. O'zi bilan bog'liq hodisalarni o'z bilganicha talqin qiladi, bir narsalarni... o'ylab topishi mumkin.
53. Insonlarga nisbatan bosiq, har kimni boricha qabul qiladi.
54. Muammolari haqida o'ylamaslikka harakat qiladi.
55. O'zini qiziqarli odam, shaxs sifatida sezilarli deb biladi.
56. Tortinchoq, osongina hovliqib qoladi.
57. Ishini oxiriga yetkazishi uchun albatta turtkilab turish kerak.
58. Ko'nglida o'zgalardan ustun ekanini his etadi.
59. Biror narsada o'zini, o'z "Men"ini ko'rsata olmaydi.
60. Boshqalarning o'zi haqidagi fikridan cho'chiydi.
61. SHuhratparast, omadga, maqtovga befarq emas, o'zi uchun muhim narsalarda eng yaxshilar qatorida bo'lishga intiladi.
62. Hozirgi kunda ko'p jihatdan nafratga loyiq odam.
63. Faol, tashabbuskor, g'ayratli odam.
64. Qiyinchiliklar, murakab vaziyatlardan qo'rqadi.
65. SHunchaki o'zini yetarlicha qadrlamaydi.
66. Tabiatan yetakchi va boshqalarga ta'sir qila oladi.
67. Umuman o'ziga yaxshi munosabatda.
68. Qat'iyatli odam, o'zinikida qat'iy turish uning uchun muhim.
69. Kim bilandir munosabatlari buzilishini, ayniqsa bu yaqqol ko'rinish hosil qilishini yoqtirmaydi.
70. Uzoq vaqt qaror qila olmaydi, keyin uning to'g'riligiga ikkilanib yuradi.
71. Hammasi qorishib, aralashib ketgan, o'zini yo'qotib quygan.
72. O'zidan mamnun.
73. Omadsiz.
74. Yoqimtoy, o'ziga tortadigan odam.
75. Balki tashqi ko'rinishi unchalik emasdir, lekin inson, shaxs sifatida yoqishi mumkin.
76. Qarama- qarshi jins vakillarini yomon ko'radi va ular bilan adi-badi aytib yurmaydi.
77. Nimadir qilish kerak bo'lsa, qo'rquv egallab oladi: eplay olmasam-chi, chiqmasa-chi?
78. Ko'ngil xotirjam, tinch, alohida xavotirli narsa yo'q.
79. Qat'iyat bilan ishlay oladi.
80. O'sayotgani, ulg'ayayotganini his etadi, o'ziga ham atrofga ham munosabati o'zgaryapti.
81. Ba'zida o'zi mutlaqo tushunmaydigan narsalar haqida ham gapiraveradi.

- 82.Hamma vaqt faqat haqiqatni gapiradi.  
 83.Havotirda. Notinch. Asabiylashgan.  
 84.Nimanidir bajarishga majbur qilish uchun yaxshigina qat'iyatli bo'lish kerak, shunda u yon bosadi.  
 85.O'ziga ishonmaydi.  
 86.Ko'pincha sharoit o'zini oqlashga, harakatlarini asoslab berishga majbur qiladi.  
 87.Yon bosadigan, yumshoq odam.  
 88.Aqlli inson, fikrlashni yaxshi ko'radi.  
 89.Ba'zan maqtanishni yaxshi ko'radi.  
 90.Qaror qabul qiladi-yu, shu zahoti o'zgartiradi, buning uchun o'zini yomon ko'radi, biroq hech narsa qilolmaydi.  
 91.O'z kuchiga ishonishga harakat qiladi, birovning yordamiga ko'z tikmaydi.  
 92.Sira kechikmaydi.  
 93.Qandaydir siqqlik, ichki bog'liqlikni his etadi.  
 94.Boshqalar ichida ajralib turadi.  
 95.Unchalik ham ishonchli o'rtoq emas, hamma narsada unga suyanaverish yaramaydi.  
 96.O'zini o'zi yaxshi tushunadi, o'zida hamma narsa ayon.  
 97.Kirishuvchan, ochiq odam, boshqalar bilan tez chiqishib ketadi.  
 98.Kuch va qobiliyatlari hal qilish lozim bo'lgan vazifalarga to'la mos keladi, hammasini uddalay oladi.  
 99.O'zini qadrlamaydi: hech kim uni jiddiy qabul qilmaydi, nari borsa unga achinishadi, toqat qilishadi.  
 100. Qarama-qarshi jinsdagilar xayolini ko'p band qilishidan xavotirda.  
 101. O'zining barcha odatlarini yaxshi deb biladi.

### Javob varaqasi

Hukm t.r.	Bu menga mutlaqo talluqli emas	Bu menga o'xshamaydi	Bu menga o'xshamaydi, chog'i	Bilmadim	Bu menga o'xshaydi, chog'i	Bu menga o'xshaydi	Bu aynan men haqimda
	0	1	2	3	4	5	6
1							
2							
101							

### Ko'rsatkichlar va talqin etish uchun kalitlar

No	Ko'rsatkichlar	Hukmlarning tartib raqamlari	Me'yorlar
1	Moslashganlik	4,5,9,12,15,19,22,23,26,27,29,33,35,37,41,44,47,51,53,55,61,63,67,72,74,75,78,80,88,91,94,96,97,98	68-170
	Moslasmaganlik		68-170

		2,6,8,13,16,18,25,28,32,36,38,40,42, 43,49,50,54,56,59,60,62,64,69,71,73,76,77, 83,84,86,90,95,99,100	
2	Soxtalik – +	34, 45, 48, 81, 89 8, 82, 92, 101	18-45
3	O'z-o'zini qabul qilish O'z-o'zini qabul qilmaslik	33,35,55,67,72,74,75,80,88,94,96 7,59,62,65,90,95,99	22-52 14-35
4	Boshqalarni qabul qilish Boshqalarni qabul qilmaslik	9,14,22,26,53,97 2,10,21,28,40,60,76	12-30 14-35
5	Emotsional komfort Emotsional diskomfort	23,29,30,41,44,47,78 6,42,43,49,50,83,85	14-35 14-35
6	Ichki nazorat Tashqi nazorat	4,5,11,12,19,29,37,51,63,68,79,91,98 13,25,36,52,57,70,71,73,77	26-65 18-45
7	Ustivorlik Ergashuvchanlik	58, 61, 66 16, 32, 38, 69, 84, 87	6-15 12-30
8	Eskaplizm (muammodan qochish)	17, 18, 54, 64, 86	10-25

### N.RAYDASNING O'ZIGA ISHONCH TESTI

Yo'riqnoma: Sizga xulq-atvorning 30ta har-xil namunalari taqdim etilgan. Iltimos, ushbu xulq-atvor sizga to'g'ri kelish yoki kelmasligini quyida keltirilgan mezon asosida belgilang.

“5”- ha, albatta, bu menga to'g'ri keladi;

“4”- bu menga to'g'ri kelsa kerak;

“3”- bilmadim, javob berishga qiynalyapman;

“2”- unchalik to'g'ri kelmasa kerak;

“1”- yo'q, bu menga mutlaqo to'g'ri kelmaydi.

1. Ko'pchilik odamlar menga qaraganda, tajovuzkorroq va o'zlariga ko'proq ishonadilar.

2. Men o'zimning tortinchoqligim tufayli uchrashuvga taklif qilishsa, qabul qilolmayman.

3. Kafeda tortilgan taom meni qoniqtirmasa, men ofitsiantga shikoyat qilaman.
4. Meni haqorat qilishsa ham men odamlarni nafsoniyatiga tegib ketishdan o'zimni olib qochaman.
5. Sotuvchi ko'p aziyat chekib menga ko'rsatgan tovari yoqmasa, unga yo'q deyish menga og'ir.
6. Mendan biror narsani qilish (bajarish)ni iltimos qilishsa, men albatta bu nima maqsadda ekanligini aniqlayman.
7. Men kuchli dalil va asoslardan foydanishni afzal ko'raman.
8. Men ko'pchilik odamlar kabi birinchilar qatorida bo'lishga harakat qilaman.
9. Rostini aytganda, odamlar mendan ko'pincha o'z manfaatlari uchun foydalanadilar.
10. Men notanish odamlar bilan bo'lgan muloqotdan zavq olaman.
11. Men ko'pincha xushro'y erkaklarga yaxshiroq nima deb gapirishni bilmayman.
12. Idoralarga telefon qilish kerak bo'lsa, men o'zimda jur'atsizlikni his qilaman.
13. Meni ishga yoki o'qishga qabul qilishlarini yuzma-yuz suhbat orqali so'ragandan ko'ra, yozma iltimos bilan murojaat qilishni afzal ko'raman.
14. Men sotib olingan narsani qaytarib berishdan uyalaman.
15. Agar meni yaqin va hurmatli qarindoshim jahlimni chiqarsa, jahlim chiqqanini namoyon qilishdan ko'ra, hissiyotimni yashiraman.
16. Men axmoq bo'lib ko'rinishdan qo'rqib, savol berishdan o'zimni olib qochaman.
17. Men bahslarda ba'zan hayajonlanib, titrab ketaman, deb qo'rqaman.
18. Agar mashhur va hurmatli ma'ruzachi bildirgan fikrning noto'g'riligini bilsam, auditoriyani meni eshitishga majbur qilaman.
19. Men sotib olayotgan narsaning bahosi ustida bahslashish va savdolashishni yomon ko'raman.
20. Agar men kerakli va arzigulik biror ish qilsam, bu haqda boshqalar bilishiga harakat qilaman.

21. Mening his-tuyg'ularim ochiq va samimiydir.
22. Agar kimdir men haqimda g'iybat qilayotgan bo'lsa, men u bilan shu haqida gaplashib olishga harakat qilaman.
23. Men ko'pincha yo'q deb javob qila olmayman.
24. Men hissiyotlarimni jilovlay olaman. Har xil janjallar qilmayman.
25. Men tartibsizlik va yomon xizmatlardan shikoyat qilaman.
26. Menga xushomad qilishganda, men nima deb javob qaytarishni bilmay qolaman.
27. Agar teatrda yoki ma'ruza paytida suhbatlashib halaqit berishsa, men ogohlantiraman.
28. Kimdir mendan oldin navbatda turishga harakat qilayotgan bo'lsa, u mening qarshiligimga uchraydi.
29. Men har doim fikrimni bildiraman.
30. Ba'zan men mutloq hech narsa deyolmayman.

**Kalit:**

1. 3, 5, 6, 7, 8, 10, 18, 20, 21, 22, 25, 27, 28, 29 savollar bo'yicha olingan ballar yig'indisi hisoblanib, natijasiga 72 soni qo'shiladi.
2. 1, 2, 4, 9, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 19, 23, 24, 26, 30 savollar bo'yicha olingan natija birinchi natijadan ayiriladi.

**Natijani tahlil qilish:**

**0-24 ball** – O'zlariga mutlaqo ishonmaydilar. Har bir xatti-harakatlarini o'ylab qiladilar. Faqat boshqa insonlarning buyurgan ishlarini bajaradilar. Bunday insonlar hatto o'z soyalaridan ham qo'rqadilar.

**25-48 ball** – O'ziga ishonchidan ko'ra ishonchsizlik kuchliroq. Bunday insonlar kimlarningdir maslahatlari bilan o'zlariga ishonishlari mumkin. Ular har doim o'zgalarning rag'batiga ehtiyoj sezadilar.

**49-72 ball** – O'ziga ishonch darajasi o'rtacha. Bunday insonlar o'zlariga ishonadilar va boshqalarning ularga to'g'ri ish qilayotganlarini uqtirish shart emas.

**73-96 ball** – O'ziga ishonadi. Ular har doim to'g'ri ish qilayapman, deb o'ylaydilar. Qaysi holatda xato qilayotganlarini juda yaxshi biladilar. Ularga boshqa odamlarning fikri mutlaqo kerak emas.

**97-120 ball** – O'ziga bino qo'ygan. Odatda bunday kishilar xudbin va mag'rur bo'ladilar. Chunki ular o'zlarini har doim haq deb o'ylaydilar. Hech bir inson ularni nohaq ekanliklariga ishontira olmaydilar.